

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**XORIJIY TILLAR FAKULTETI
NEMIS TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

RAXIMOVA MAXBUBAning

**“5220100-Filologiya va tillarni o‘qitish” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun**

**“SHILLER POEZIYASI O‘ZBEK TILIDA”
mavzusida yozgan**

Bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: Yu. Raximova

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Xorijiy tillar fakulteti
dekani _____ v.b. A. Aliqulov
“ _____ ” _____ 2015 yil

Qarshi-2015

MUNDARIJA

Kirish3

I bob. Shiller poetikasining tarjimalari xususida.

1.1."Asoratdagi Pegas", "Zamin taqsimoti" she'rlari tarjimasining badiiy xususiyatlari.13

1.2."Gero va Leandr", "Qo'lqop" balladalar tarjimasining lingvoepik tahlili.....33

II bob. Shiller va o'zbek adabiyoti.

2.1.Shiller ijodining o'zbek yozuvchilariga ta'siri.....39

Xulosa.....45

Adabiyotlar ro'yxati51

KIRISH

Milliy madaniyatlarning bir-biri bilan aloqasi va o'zaro ta'siri jahon madaniyati taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri sifatida baholangan."Har qanday millat boshqalardan o'rganishi mumkin va shartdir". Milliy madaniyatlarning taraqqiyoti va ularning bir-biri va jahon madaniyati bilan aloqalari ayniqsa milliy mustaqilligimiz yillariga kelib, chuqur internatsional mohiyat kasb etdi."... dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini tarjima qilish, chop etish, o'rganish bilan bog'liq tajriba, chet el yozuvchilari bilan aloqalarni yanada rivojlantirish masalasiga bugun yetarlicha ahamiyat bermayapmiz.... Boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish lozim. Men bu borada G'arb bilan birga Sharq mamlakatlari aloqalarini kuchaytirishni tavsiya etgan bo'lardim¹" degan edi I.A. Karimov. Jahon adabiyotshunosligining tajribasini shuni ko'rsatadiki, milliy adabiyotlarning o'zaro aloqalari va ta'sirini o'rganish, adabiy aloqa hamda adabiy ta'sirning o'ziga xos qonuniyat va xususiyatlarini ochib berish, bir tomondan, jahon adabiyoti bosib o'tgan yo'lining asosiy tendensiyalarini belgilashga yordam bersa, boshqa tomondan, milliy adabiyotlarning bundan keyingi taraqqiyotiga jiddiy turtki bo'ladi.

Sharq xalqlari adabiyotiga, jumladan, o'zbek adabiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan g'arb klassiklaridan biri, buyuk nemis dramaturgi va shoiri Fridrix Shillerdir. Shiller Vyurtemberg gertsogligida, Nekar daryosi yaqinidagi mo'jzagina Marbax shaharchasida, Germaniyadagi yeti yillik urush (1756-1763) ayni avjiga chiqqan bir mahalda, 1759-yilning 10-noyabrida urush farzandi bo'lib dunyoga keldi. Uning Nanetta, Luiza, Kristofina ismli opa-singillari bo'lgan. Onasi Yelizaveta Doroteya dindor ayol bo'lib, o'g'li Shillerga diniy-ahloqiy aqidalarni singdirishga harakat qilgan. U bolalariga ajoyib kishilar hayotidan hikoya qilib bergan. Otasi Yohann Kaspar - armiya ofitseri, dunyoqarashi keng, o'z davrining yetuk, ongli kishilaridan bo'lgan.

Shiller 1768-1772 yillarda Lyudvigsburgda lotin maktabini bitkazgach, Karl Yevgeniy nomli Harbiy Akademiyada ta'lim oladi. U oilasidan, qarindosh-urug'laridan ancha uzoqlashib, sakkiz yillik umrini "Qullar plantatsiyasi" deb atalgan o'sha Harbiy

¹ Karimov I.A., Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatiga, kelajakka e'tibor."O'zbekiston" nashriyoti. Toshkent. 2009. 32-34 betlar.

Akademiyada o'tkazadi. Bu yerda u adliya va tabobat ilmlari bilan shug'ullanadi. 1780-yilda Shiller vrachlik diplomini olgach, Shtutgart garnizonida polk vrachi bo'lib ishlaydi. Ammo bu uning ma'naviy dunyosini qoniqtirmaydi. Uni adabiyotning sirli va sehrlilari o'ziga maftun etardi, shu bois akademiyada o'qib yurganchog'laridayoq yashirin tarzda nemis klassik yozuvchilarning asarlari bilan birgalikda ingliz dramaturgi Shekspirning Viland tarjimasidagi ijodi bilan tanishib chiqadi. Shekspir ijodi Shillerga dramaturgiyaning qat'iy qonun-qoidalariga rioya qilishga undagan bo'lsa, G.E. Lessingning "Emiliya Galotti", Y.V. Gyotening "Gyots fon Berlixingen" asarlari bo'lg'usi ijodkor ongi va dunyoqarashining shakllanishiga, badiiy tafakkur dunyosining boyishiga ijobiy va ijodiy ta'sir ko'rsatdi.

Shiller adliya va tabobatdan tashqari estetika, tarix, mantiq, metafizika, falsafa tarixi bilan ham shug'ullangan. Yosh vrach va yozuvchi sifatida psixologiya va bilish masalalari ham uning o'tkir nigohidan chetda qolmagan. Bu borada ilmiy izlanishlar qilgan, buning natijasi o'laroq, 1779-yilda "Psixologiya falsafasi" mavzuyida doktorlik dissertatsiyasi paydo bo'ladi. Shoir uchun badiiy ijod va ilmiy ish bir xil qimmatga ega edi. Shu bois u 1780-yilning oxirlarida, "Insonning biologik va ruhiy tabiatining o'zaro aloqlari bo'yicha tajriba" nomli ikkinchi dissertatsiyasini himoya qiladi. Shiller bu tadqiqotida inson hayotini materialistik asosda bilishga harakat qilgan edi.

Adabiyotga ixlos shoirida ancha erta uyg'ongan. U 10 yoshidayoq she'r mashq qila boshlagan. Uning birinchi "Oqshom" she'ri 1776-yili bosilib chiqqanida, u endigina 17 yoshga to'lgan edi. Keyinchalik uning nomi "Shvabiya jurnalida tez-tez ko'rinadigan bo'ldi.

Shiller ijodiyotida dramaturgiyaning rivojlanishida nemis klassik yozuvchisi Gotxold Efraim Lessing (1729-1781) ning, fransuz mutafakkuri va G'arbiy Yevropa ma'rifatparvarlaridan Fransua Arue Volter (1694-1778), Deni Didro (1713-1784), Jan Jak Russo (1712-1778) larning ta'siri kuchli bo'lgan. Ayniqsa "*buyuk nemis*" Y.V. Gyote bilan do'stlashuvi uning salohiyatiga ulkan ta'sir ko'rsatdi, ijodida yangi-yangi olamlar kashf etilishiga turtki bo'ldi. Adabiyot va san'at sohasidagi bu ikki buyuk dahoni bir nuqtaga tortgan yagona kuch fikrlarining umumiyliigi, dunyoqarashlarining mushtarakligi edi. Gyote bilan bo'lgan uchrashuvlar, shaxsiy suhbat, tinimsiz xat olishuv

va fikr almashuvlar, hamkorlikda gi ijodiy mehnat (1776-yilda Gyote bilan birgalikda siyosat va adabiyot muxoliflarini jaholatparastlarni konservatorlarni, ruhoniy va din ahllarini hajv qilgan “Kseniya” she’rlari) bu do’stlikning guvohidir. Bu davrda shoir yaratgan balladalar nemis poeziyasining eng sara asarlari bo’lib qoldi. Bugun Vaymarda qad ko’tarib turgan Gyote-Shiller haykali bu ikki san’atkor do’stligining ramzidir.

Umr poyonida yaratilgan “Vallenshtayn” (1797-1799) trilogiyasi, “Orlean qizi” (1800-1801) tragediyasi va “Vilgelm Tell” (1802-1804) dramasi bevosita Y.V. Gyote ijodining samarali ta’siri natijasidir. Butun poetik va epik dahosi mujassamlashgan tarixiy drama “Vallen-shtayn” Germaniyadagi o’ttiz yillik urush (1618-1648) to’g’risidagi voqea-hodisalarni qamrab oladi. Nemis munaqqidi Frants Mering Shiller ijodiyotiga Gyotening yordami va ta’sirini yuksak baholab, “dramaturgning o’sha yillardagi ijodi- klassik adabiyotimizning cho’qqisini egallaydi”, degan edi. I.S. Turgenev esa, Shiller bilan Gyotening adabiyot maydonidagi mavqeyini baholab: “ ...U Gyotedan san’atkor shaxs sifatida quyida bo’lsa-da, inson va grajdan sifatida yuksakdir”-deb yozadi.

23 yoshlik Shillerda rus o’lkasi – Peterburgga borish istagi paydo bo’ladi. Bunga shoirning Harbiy Akademiyada birga o’qigan do’sti Doktor fon Yakobi va singlisi Kristofinaga yozgan maktublari guvohlik beradi. U xatlarida Peterburgga vrach sifatida borajagini va shu baxonada u yerdagi “Umumiy kutubxona” lardan ham foydalana olishga imkon tug’ilajagi haqida yozadi. Shiller ijodining ayni gulagan davrida rus voqeligini aks ettirmoqchi bo’lib boshlagan, ammo tugallanmay qolgan “Demetrius” asari Shillerning rus xalqiga bo’lgan hurmat va ehtiromining ramzi edi.

Shoir ijodining ilk davrlarida diniy ruhga moyillik sezilsa, keyingi yillar ijodida lirik ohanglar, kurashchanlik ruhi ko’zga tashlanib tashlanib turadi. Bu davr she’riyatida borliq voqea-hodisalarni romantik ruhda kuzatish harakterli xususiyat kasb etadi. Shoirning bahor, vafo, sevgi, ishonch haqidagi she’rlari ijodida alohida o’rin tutadi. Ayniqsa, Sharq klassiklari nazmida o’zgacha bir ohang bilan kuylangan bu mavzu Shiler qalamidan ham qochib kutilmadi, uning tasvirida baxt, bahor, muhabbat mavzulari g’arbona ifodasini topdi. 1782-yilgi antologiyadan joy olgan kichik janrdagi asarlari “Shunday yoqimlik”, “Jaranglaydi gorn sadolari”, 1795-1805-yillar ijodi mahsuli

bo'lgan "Ishonch", "Amaliya", "Elegiya", "Qo'lqop" singari lirizm bilan sug'orilgan, falsafiy teran, inson kayfiyatini, his-tuyg'ularini, hayajonini ifodalaydigan she'rlari nozik didli kitobxonni nafasat olami sari yetaklaydi. Shiller ijodidagi romantik tuyg'u, fikriy teranlik, falsafiy mushohada uning "Asoratdagi Pegas" ramziy-mifologik pamfletida ham ko'zga tashlanadi.

Nemis knyazliklarning o'zaro kelishmovchiliklari, hokim sinf o'rtasidagi tinimsiz kurashlar, yetilmagan hayotiy problemalar shoirni yirik polotnolar, realistik asarlar yaratishga undardi. Endi u faqat hissiyotga, intim tuyg'u- larga berilmasdan, kishilar ozodligini, erk-huquqini, ona-yurt ta'rifini epik planda ifodalashga kirishadi. Muhabbat bilan ozodlik, tenglik uchun kurash shoir ijodining yetalchi motivlaridan biriga aylandi.

Nemis prozasi va poeziyasini mazmun va shakl jihatdan boyitgan shoir va dramaturg F.Shiller, E.G.Lessing, Y.V.Gyote, H.Hayne singari jahon badiiy tafakkur taraqqiyotining buyuk siymolari qatorida siyosiy-falsafiy lirikaning, she'-riy drama va tragediyaning badiiy yetuk namunalarini yaratdi. U jahon adabiyotida ijtimoiy-falsafiy hamda badiiy-estetik tafakkur kamoliga barakali hissa qo'shgan san'atkorlardan biri sifatida katta nufuz qozondi. Shiller she'riyati, romantik kechinmalarga boy dramaturgiyasi, adabiy-tanqidiy maqolalari, san'at nazariyasiga oid asarlari bilan ulkan ma'naviy boylik yaratdi.

Shiller adabiy merosining O'zbekistonga kirib kelishi va o'zbek adabiyotiga ta'sirining sabablarini dramaturg san'atining badiiy ta'sir kuchi va g'oyaviy yo'nalishidan qidirish lozim. O'zbek madaniy hayotiga kirib kelish tarixi o'zbek milliy teatri va dramaturgiyasining shakllanish arafasiga to'g'ri keladi. Bunda asosiy o'rinni uning dramaturgiyasi egallaydi. O'zbek dramaturgiyasi orqali Shiller an'analari o'zbek adabiyotining boshqa janrlarida ham ildiz ota boshladi. 1920-1960-yillarda K.Yashin, V.Jirmunskiy, G'.Yunus, F.Sulaymonova, S.Eshonturayeva, Q.Xo'jayev singari fan-madaniyat va san'at arboblarning markaziy matbuotlarida chiqqan maqola va xotiralari Shillerning O'zbekistonda targ'ibi va tarqalishi, o'zbek sahna aktyorlari mahoratining takomillashuvi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. 60-yillardan e'tiboran o'zbek-nemis adabiy aloqalari tarjimashunoslik masalalari yuzasidan qilingan ayrim tadqiqotlarda Shiller asarlari, ularning tarjimalari turli nuqtai nazardan o'rganish

ob'ektiga jalb etilgan, g'oyaviy estetik xususiyatlari haqida ayrim qimmatli mulohazalar bildirilgan.

Nemis tragediyasini yaratgan Shiller badiiy tafakkur taraqqiyotining buyuk siymolaridan biridir.U siyosiy-falsafiy lirika, drama va tragediyaning yetuk namunalarini yaratdi.Shiller jahon adabiyotida ijtimoiy-falsafiy hamda badiiy-estetik tafakkur kamolotiga barakali hissa qo'shgan san'atkorlardan biri sifatida katta e'tibor qozongan."Shiller masalasida men bir qator yonbosishlarga tayyorman. ... Inson sifatida uning ruhi hamda hayoti men uchun g'oyatda ardoqli va ulug' hodisadir."¹ degan edi Nobel mukofoti shogirdi Herman Hesse. Shiller ijodi nemis tadqiqotchilari tomonidan adabiyotshunoslik va lingvistik aspektda atroficha o'rganilgan.A.Abushning "Shiller.Nemis geniysining ulug'vorligi va fojiasi" kitobi shoir haqidagi ocherk harakteridagi ish bo'lib, XVIII asr oxiri – XX asr boshlaridagi butun ijodiy faoliya-tini qamrab oladi.Klaus L – Bergxanning 1964-65-yillarda yaratgan "Shillerning klassik dramalarida dialog shakllarga doir" dissertatsiyasi qayta ishlanib 1970-yilda matbuotda e'lon qilindi.Hans-Bernd Xarderning "Shiller-Rossiyada" kitobi shoir haqida tarixiy ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi.Shiller adabiy merosi umumfilologik yo'nalishdan tashqari, ijtimoiy-falsafiy, estetik-pedagogik aspektlarda ham tekshirilgan.T.G.Mkalayeva "XIX asrning birinchi yarmi ilg'or rus tanqidchiligida F.Shiller ijodiga berilgan baho"¹ tadqiqotida V.G. Belinskiygacha bo'lgan rus mutafakkirlarining Shiller badiiyatining ahamiyati va rus ijodkorlariga ta'siri masalalarini kuzatadi.Rus adabiyotshunosligida Shillerning "Don Karlos" tragediyasi, "Estetik tafakkur tarixida Shillerning roli" kabi ilmiy ishlarni ham uchratish mumkin.Shiller ijodi Rossiyaga o'zi tiriklik chog'idayoq tarqalgan edi.XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Shiller asarlarining rus tiliga ko'plab ag'darilgani va o'sha paytdayoq uning yuzga yaqin rus tarjimonlari bo'lgani yaxshi ma'lum.Ular orasida V.A.Jukovskiy, N.M. Karamzin, A.Merzlyakov, A.Vostokov, M.Yu.Lermontov, F.I.Tyutchev, K.S.Aksakov va rus adabiyotining quyoshi A.S.Pushkin kabi yozuvchi, shoir va olimlar bor.N.N.Sandunov ("Qaroqchilar"), N.Gnedich ("Genuyada

¹ Herman Hesse.Jahon adiblari hayoti haqida.Toshkent.Ma'naviyat.2010.19-bet.

¹ Мкалаева Т.Г. , Ф.Шиллер в оценке передовой русской критики первой половины XIX века. М.1965

Fieskoning fitnasi”), S.I.Smirnov (“Makr va Muhabbat”) Shillerning birinchi rus tarjimonlari bo’lgan.² Shoir she’riyatining birinchi tarjimoni Karamzin bo’ldi.U 1794-yilda “Shodlikka” she’rini ruschalashtirgan edi.She’r shodlik “madhiyasi” sifatida xalqi orasida keng tarqaldi.

Shiller adabiy merosi O’zbekistonga ilk bor rus tili orqali kirib keldi.O’zbek xalqi madaniy hayotiga nemis dramaturgining sahna asarlari 1870-80-yillarda rus teatr truppalari va musiqa jamoalari bilan kirib kela boshladi.Ushbu teatr jamoa repertuarlarida Shiller asarlari ko’proq o’rin olgan.Ular Shillerning „Makr va muhabbat”, „Qaroqchilar”, „Vilgelm Tell”, “Orlean qizi” spektakllarini mahalliy xalq orasida yillar davomida rus tilida qayta-qayta qo’yishgan.Madaniy va ma’rifiy keskin ko’tarilish yillaridan (1920-30) e’tiboran xalqimiz uchun G’arbu Sharq bir qadam bo’la bordi.Dastlab o’zbek o’quvchisi Shiller, Gyote, Haynelar ijodi bilan rus tili orqali tanishgan bo’lsa, bu davrga kelib mahalliy tarjimon va yetuk mutaxassislar safi kengayib o’z ona tillarida gapirisha boshladilar.Natijada, o’zbek xalqining adabiy-madaniy aloqalari misli ko’rinmagan darajada rivojlandi.O’zbekistonda Shillerdan tarjimalar qilinib, uning adabiy merosidan o’zbek xalqini birinchi bo’lib bahramand etgan shoir-tarjimon Sh.Sh.Xurshiddir.Shiller an’analarining O’zbekistonga tarqalishida G’Yunusov, Cho’lpon, Xurshid, A.Ayub, N.Vazixanov singari shoiru yozuvchilar, san’atkorlar ijodiy faoliyat ko’rsatishdi.O’zbekistonda Shiller ijodining o’rganilishi, tarjima qilinishi, o’zbek adabiyotiga ta’sirini o’zbek shillershunosligi deb atash mumkin.1920-30-yillarda o’zbek ziyolilari va san’atkorlari tomonidan G’arb teatr an’analarining o’zlashtirilishi Shiller asarlarining teatr sahnasida o’zbek aktyorlari ijrosida mahorat bilan o’ynalishi o’zbek teatri rivoji tarixida muhim ahamiyat kasb etdi.A.Ayub tarjimasida “Makr va muhabbat”ning yangi varianti paydo bo’ldi.Keyinchalik, asarni K.Yashin va M.Hakimovlar o’girdi. N.Vazixanov ruschadan nasrda “Vilgelm Tell” she’riy dramasidan parcha o’girdi.Ushbu asar Shiller ijodida realistic elementlarning shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. N.Vazixanov tarjimasining badiiy saviyasi hozirgi sinchikov va yuksak didli kitobxonni qoniqtirmasada, shakl jihatdan original yaxlitlikni, bir butunlikni saqlamagan bo’lsa-da,

² Смоляна О.А., Первые переводы и постановки Шиллера в России.М:Наука. 1966. Стр 13.

400-yillar xorijiy xalqlar adabiyoti namunalari badiiy tarjimachiligidagi ijodiy izlanishlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

50-yillardan boshlab o'zbek shillershunosliligida ikkita tendentsiya yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchidan, Shillerning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish, shoir yashagan davrning ijtimoiy mohiyatini, sotsial ziddiyatlarni chuqur idrok etish aspektida olib borilgan bo'lsa, ikkinchidan, bu tarjimonlarimiz saviyasining ma'lum darajada oshganligida ko'zga tashlanadi. Mustaqillik yillarida ham tarjima ishlariga e'tibor yanada kuchaydi. Jahon klassikasi bilan birga, "Makr va muhabbat" (K.Yashin va M.Hakim.1939y), "Vilgelm Tell" (G'.G'ulom.1955y), "Qaroqchilar" (A.Muxtor.1955y), "Mariya Styuart" (T.To'la.1970y), kabi dramatik va tragik asarlari "Asoratdagi Pegas" pamfleti (M.Ali tarjimasi.1966y), "Russo", "Zamin taqsimoti", "Nechuk shirin baxt ekan..." va mashhur "Qo'lqop" (O.Matjon.1984), "Yerning taqsimlanishi" (Muhammad Ali.2009) kabi she'r va balladalar tarjimasining matbuotda bosilib chiqishi, nemis shoiri ijodining xalqimiz orasida nechog'lik mehr-e'tibor qozonib borayotganidan dalolatdir.

Shiller abadiy merosining O'zbekistonda keng yoyilish tarixini o'rganishni uning poetik asarlari tarjimasiz tasavvur qilish qiyin. 1966-yilda Muhammad Ali Shillerning ramziy-mifologik asari "Asoratdagi Pegas" pamfletini, 1970-yilda shoir Turob To'la tarixiy mavzudagi "Mariya Styuart" tragediyasini tarjima qildi.

1960-yillarda Shiller asarlari tarjimasi jarayonida mutarjimlarning ham badiiy mahorati shubhasiz o'sdi.

Shiller asarlari o'zining ko'plab qirralari bilan o'rganila boshlandi. Bu narsa o'zbek shillershunosliligining yangi bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, adabiyotshunos F.Sulaymonovanning "Shiller – buyuk nemis shoiri" tadqiqotini alohida ta'kidlab o'tishi mumkin.

80-yillarda Shiller adabiy merosini o'rganishda O'zbekistonda yangi davr boshlandi. Shoir ijodi bilan shug'ullanish uchun tus oldi. Bu ezgu ishda tarjimon va tadqiqotchilarning safi kengaydi. A.P.Chexov nomidagi Samarqand davlat rus drama teatri jamoasi Shillerning "Orlean qizi" dramasini sahnalashtirildi. E.Vohidov "Gero va Leandr" balladasini, Omon Matjon "Qo'lqop" balladasi va "Russo", "Kolumb", "Zamin

taqsimoti”, “Nechuk shirin baxt ekan...” she’rlarini rus tili va taglamadan tarjima qildilar.Hatto, oxirgi she’rga kuy bastalanib, ijro etildi.Nemis-o’zbek adabiy aloqalari yo’nalishida Shiller asarlarining o’zbek tiliga tarjima tarixi, badiiy xususiyatlari, o’zbek sahnasidagi faoliyati, aktyorlar mahorati va shoir ijodining o’zbek adabiyotiga ta’siri kabi bir qator ilmiy – nazariy ishlar yaratildi.

Bu ishlar orasida M.Ibrohimovning “Uzbekskaya ballada”nomli dissertatsiyasining bir qismi o’zbek balladalarining nemis xalq balladalari bilan mushtarak tomonlariga bag’ishlangan bo’lsa, R.Fayzullayeva, Sh.Karimov, U.Sotimov, O’.Nurmatovlarning dissertatsiyalarida Shiller tragediyalari va tarjimalari kuzatish ob’ekti qilib olingan.

Shiller ijodini O’zbekistonda uch bosqichga bo’lib o’rganish mumkin.*Birinchi* bosqich 1920-1950 yillarni o’z ichiga oladi.Bu davrda Shiller adabiy merosining o’rganilishida ikki tendensiya ko’zga tashlanadi.Birinchisi, Shiller asarlarining (“Makr va muhabbat” – Sh.Sh.Xurshid va A.Ayub, “Qaroqchilar” – Xurshid va A.Muxtor tarjimalari) ilk bor o’zbek tiliga tarjima qilinishi truppalardan tomonidan sahnaga qo’yilishi bilan harakterlanadi.Ayni shu bosqichda ko’zga tashlangan ikkinchi tendensiya shundan iboratki, (1930-yillar oxiri – 1950-yillar o’rtalari) bunda Shillerning ilk dramalari bor badiiy tarovati, estetik go’zalligining o’zbek tilida qayta yaratilishi bilan ajralib turadi.

Shiller adabiy merosining O’zbekistonda o’rganilish tarixining *ikkinchi* bosqichi 1960-2000-yillarni o’z ichiga oladi.Mazkur bosqichda Shillerning badiiy barkamol dramatik, tragik (“Vilgelm Tell”, “Mariya Styuart”) va poetik asarlarning (“Gero va Leandr”, “Asoratdagi Pegas”, “Qo’lqop”, “Russo”, “Kolumb”, “Zamin taqsimoti”) tarjima qilinib, o’zbeklarga tanishtirilishi bilan ajralib turadi.Bu davrda ham Shiller ijodining o’rganilish tarixida ikki tendensiya ko’zga tashlanadi.Birinchidan, Shiller asarlarining, uning o’zbek dramaturgiyasining taraqqiyotida tutgan o’rni va ahamiyati nuqtai nazaridan baholandi.Ikkinchidan, asarlarning badiiy-estetik qiymati o’rganilar ekan, mazkur asarlarning yaratilish tarixi Germaniyadagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy muhit bilan Shillerning falsafiy-estetik qarashlari bilan bog’liqlikda tekshirila boshlandi.

Shiller ijodini o'rganishning *uchinchi* bosqichi milliy Mustaqillik davriga to'g'ri keladi. O'tmishda undan bilvosita (rus, tatar va ozarbayjon tillari orqali) tarjima qilishga, asarlarini sahnalashtirishga e'tibor qaratilgan bo'lsa, bu davrga kelib Shiller adabiy merosi asl nusxadan tarjima qilina boshlandi. Dramaturg ijodi yuzasidan ilmiy ma'ruzalar qilishga, ilmiy va ommaviy harakterdagi maqolalar, risola va monografiyalar yaratishga e'tibor qaratildi. Shoir ijodining 250 yilliligi munosabati bilan "Jahon adabiyoti" jurnalida "Shodlik, ey sen, ilohiy olov" rubrikasi ostida "Yerning taqsimlanishi", "Russo", "Qo'shga qo'shilgan Pegas" she'rlari Muhammad Ali tomonidan qayta tarjima qilindi.

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillik yillarida tarjima ishlariga e'tibor kuchaydi. Shiller adabiy merosining O'zbekistonda yoyilish tarixini o'rganishni poetik asarlari tarjimasiz tasavvur qilish qiyin. Shillerning she'riy asarlari tarjimasida tarjimonlarning badiiy mahoratini ko'rsatish misol qilib olingan she'riy tarjimalarning badiiy xususiyatlari va ularning lingvoepik tahlili ishning dolzarbligini tashkil etadi.

Mavzuni o'rganilganlik darajasi: Shiller ijodi ,xususan she'riy asarlari tarjimasining badiiy g'oyaviy xususiyatlari tadqiqotchilar tomonidan adabiyotshunoslik va lingvistik aspektda atroflicha o'rganilgan. Xususan, A. Abushning "Shiller. Nemis geniysining ulug'ligi va fojiasi", "H. Harderning "Shiller-Rossiyada" A. Anisimovning "Klassiklarning zamonaviyligi, N.N. Vilmontning "Dostoyevskiy va Shiller" kitoblari F. Sulaymonovning "Shiller buyuk nemis shoiri" taqdiqoti, R. Fayzullayeva, Sh. Karimov, U. Sotimov, O'. Nurmatovlarning dissertatsiyalari, R. Abdullayevaning "Shiller va o'zbek adabiyoti" monografiyalari va boshqalarini misol qilib keltirish mumkin. Bitiruv malakaviy ishda she'riy tarjimalarning lingvoepik xususiyatlari A. Sher, M. Ali, O. Matjon, V. Levik tarjimalari misolida chuqur va atroflicha tahlil etdik.

Ishning maqsadi: Badiiy tafakkur taraqqiyotining buyuk siymolaridan biri F. Shiller ijodini O'zbekistonda o'rganilishi va tarjima qilinishi tarixini aniq bir misollar asosida yoritib berish, she'riy asarlar tahlilini ko'rib chiqish tarjimalardagi yutuq va kamchilikarni o'rganib chiqish, badiiy tasvir vositalarining qay darajada qo'llanilganligini ko'rib chiqish muhitdir.

Ishning vazifasi:Shiller she'riy tarjimalarini chuqur va batafsil yoritish quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

1.Shiller ijodini O'zbekistonda o'rganilish tarixi va o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga kirib borish bosqichlarini asoslash.

2.Shiller she'riy asarlarining tarjimasini g'oyaviy badiiy xususiyatlarini baholash.

3.She'riy tarjimalarning lingvoepik tahlil qilish orqali Shillerning o'zbek adabiyotiga ta'sirida badiiy tarjimaning rolini aniqlash.

4.O'zbek adabiyotida Shiller poeziyasi an'alarining izlarini aniqlash va hokazo.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti:Shiller poeziyasi, uning o'zbek tiliga tarjimalari va o'zbek adabiyotiga ta'siri ob'ekt vazifasini o'taydi.Asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'zbek, rus, nemis tarjimashunos olimlarining darslik, qo'llanma, risola, maqolalari asosida Shiller she'riy tarjimalarining xususiyatlari o'rganilib tahlil qilib chiqildi.

Ishning ilmiy yangiligi:tadqiqot ob'ektiga tegishli g'oya va obrazlarning tangicha qirralarini ochib berishga qaratilgan tahlillar, muammoni hal qilish bo'yicha ilmiy-nazariy xulosalarni keltirib chiqarish ishning mazmunini yoritishda yangi adabiyotlardan foydalanishga erishish ishning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Nazariy va amaliy ahamiyat:tadqiqot uchun maqsad qilib olingan muammolarni hal etish bo'yicha nazariy xulosalarni keltirib chiqarish dolzarb vazifa hisoblanadi.Bo'lg'usi tarjimonlar, tarjimonlik yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar o'z faoliyatlarida badiiy, xususan she'riy tarjimaning eng so'nggi yangiliklaridan foydalanishni maqsad qilib qo'yishlari kerak.Tadqiqot jarayonida foydalanilgan ishga oid shu davrgacha olib borilgan tadqiqotlar, taqrizlar, o'zbek, nemis, rus tillaridagi darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalardan samarali foydalanishning nazariy, ham amaliy ahamiyati beqiyosdir.

Tadqiqotning tuzilishi: Bitiruv-malakaviy ish ishning umumiy tavsifi, kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob.Shiller poetikasining tarjimalari xususida

1.1.”Asoratdagi Pegas”, “Zamin taqsimoti” she’rlari tarjimasining badiiy xususiyatlari.

Shiller ijodi tarixiy voqeyliklar bilan birgalikda,syujeti afsona,rivoyat va asotirlarga asoslangan asarlar bilan diqqatga sazovordir.Shoir Germaniya bilan bog’liq afsona va rivoyatlarni mukammal o’rganib chiqdi.Buning natijasi o’laroq,grek mifi asosida yaratilgan “Gero va Leandr”, “Qo’lqop” balladalari, “Asoratdagi Pegas” pamfleti va “Zamin taqsimoti” she’ri janriga yaqin tursa-da,muallif uni hikoya deb atagan.

“Asoratdagi Pegas” pamfleti Shiller ijodida alohida ahamiyat kasb etuvchi,hajm jihatdan kichik,ammo mag’zi pishiq,ramziy-mifologik asardir.Masal janriga yaqin bo’lgan bu asar o’sha davrdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy voqea-hodisalarni fosh qilish maqsadida yaratilgan.Mazkur o’tkir tanqidiy she’r 1795-yil 20-iyulda yozib tugatilgan,ilk bor “ Pegasus im Joche” sarlavhasi ostida “Musenalmanach”ning 62-67 betlarida chop etilgan.Yangi asardan qoniqish hosil qilmaslik Shiller ijod jarayonining muhim xususiyatlaridan biri edi.Shuning 1795-yil 7-avgustda Shiller she’rning yakuniy qismini qayta ishlab Humboldtga jo’natadi.Asardagi ijobiy jihatlarni ko’rgan Humboldt 1795-yil 10-avgustda Shillerga yozgan javob xatida asar yakunini “qoyilmaqom” deb ta’riflaydi.Shiller she’rni maslakdosh do’stlari Gyote,F.Shlagel,Kyorner va Harderga jo’natib,ularning ham she’r haqidagi fikrlarini bilib oladi.She’rni ular ham yuksak baholaydilar.

Shiller “Asoratdagi Pegas” ni yaratishda juda ko’p manbalardan foydalangan, zamondoshlari“Asoratdagi Pegas” pamfleti Shiller ijodida alohida ahamiyat kasb etuvchi,hajm jihatdan kichik,ammo mag’zi pishiq,ramziy-mifologik asardir.Masal janriga yaqin bo’lgan bu asar o’sha davrdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy voqea-hodisalarni fosh qilish maqsadida yaratilgan.rining maslahatiga suyangan.G’arbiy Yevropa xalqlari bilan madaniyatlarida,urf-odatlarida yaqinlik bo’lgan rus xalqi Shillerning ba’zi bir asarlarini u hayotligidayoq o’z tiliga tarjima qila boshlagan edi.Shoir she’rlarining Rossiyadagi birinchi tarjimoni N.M..Karamzindir.U 1794-yilda shoirning “Shodlikka” she’rini o’girgan.Bu she’r o’sha paytlarda “Shodlik gimni” sifatida xalq orasida keng tarqalgan.Ammo majoziy –allegorik asar “Asoratdagi Pegas”ning ruscha matni butun hayotini jahon adabiyoti namunalarini o’girishga bag’ishlagan shoir-tarjimon Vilgelm Levik qalamiga mansubdir.Shillerning asarlari

o'zbek tiliga turli davrlarda turli yozuvchi,shoirlar tomonidan tarjima qilindi.1996-yilda bu she'rnı Muhammad Ali o'zbek o'quvchilariga taqdim etdi.Bu shoirning G'arb klassik adabiyotidan tarjima bobidagi ilk asari edi.Shoir tarjimaga V.levik variantini asos qilib olgan.

Shoirning mifdan ma'naviy oziqlanishi,folklorga suyanishi,afsona va rivoyatlar asosida asarlar yaratishi uning badiiy mahoratining yuksalganidan,ijodining yangi-yangi qirralari kashf bo'lganidan dalolatdir.Shillerning asotirdan foydalanishi,asarlarining badiiy-estetik qimmatini oshiribgina qolmay,ayni choqda,uning badiiy asarlari galeriyasiga rang-baranglik ham baxsh etdi.asar yo'nalishini,ya'ni biror narsa yoki shaxs to'g'risida hikoya qilinishini,hech ikkilanmay she'r sarlavhasining o'zidanoq bilib olish mumkin.

Ijodkor asariga och qolgan shoirni qahramon qilib oladi,uning ilhomini qadimgi grek mifologiyasidagi uchqur qanotli ot *Pegasga* mengzatadi.*Pegas* ham majoziy suratda asar qahramonlaridan biri sifatida tasvirlanadi.Asardagi lojuvard osmonga intilayotgan uchqur qanotli ot *Pegas* –bu shoir ilhomining arg'umog'idir.Shiller mif asosida yaratgan majoziy obraz *Pegas* vositasida o'zi yashagan davr ijtimoiy-siyosiy muhitni,shu muhitdagi qarama-qarshi hodisalarga munosabatini ifodalaydi.Aslda asardagi boshqa obrazlar (och qolgan shoir,tog'dan tushib kelib *Pegasni* himoyasiga olgan yigit,xaridor bo'lib kelgan dehqon Hans) ham sotsial-allegorik obrazlar majmuasidir.Shiller o'zini o'rtayotgan,o'y va kechinmalarini,hayotdagi ijtimoiy masalalarni badiiy usul vositasida majoziy shaklda ifodalagan.Hatto she'rdagi "*Haymarket*" geografik nomi ham voqeaning haqiqatligini isbotlay olmaydi,chunki asarda mif asosiga qurilgan majoziy tasvir juda kuchli.

Shiller "chor-nochor,och qolgan shoir"obrazi orqali o'z g'oyasini,g'oyaviy niyatini ilgari suradi.Asardagi *Ilhom tulpori* bo'lib gavdalangan Pegas oddiy obraz emas,u o'zida juda katta majoziy ma'no tashiydi.U shoir vujudidagi tunganmas kuch-qudrat,yuragidagi jo'shqinlik,toshqinlik ramzi bo'lib namoyon bo'ladi.Ilhom bilan ijod qilish ijodkorni poyonsiz kengliklarga,ko'z ilg'amas cho'qqilarga,cheksiz ufqlar, "*sirli miltiragan sonsiz yulduzlar*" olamiga olib chiqadi.Bu yerda faqat jo'shqin ilhom bilan ijod qilish,oldinga,yuksaklikka intilib yashashdek bir ramziy ma'no obrazli

ifodalangan. Bu majoziy tasvir, bu ramziylik Muhammad Ali nazmida Shillerona ifodasini topgan deyish mumkin. Ko'klarga parvoz qilish uchun qanot qoqayotgan *Pegas* she'rning birinchi satrlaridanoq kitobxonda mifologik tushuncha paydo qiladi. Ya'ni:

Yollarin silkitar, kishnar asov ot,
Ko'klarga sapchiydi. Odamlar hang-mang,
Hayratdan yoqasin ushlaydi: "Hayhot,
Qanaqa zo'r ot-a. Savlatin qarang.

Osmon falaklarga ayladi parvoz.
Pinhon qudratini etib namoyon.
Quyida o'rmonlar bo'y cho'zmish daroz...
Birdan ketdi hamma otlardan imon.

She'r g'oyaviy- badiiy yo'nalishining o'zbekchaga to'g'ri ko'chirilishi tarjimonning yutug'idir. Majoziy-allegorik obrazlar (Hans, shoir, xaridor, tog'dan sitra chalib tushib kelgan yosh yigit va ramziy-allegorik obraz Ilhom tulpori-Pegas), ular oralaridagi muomala-munosabat, umuman she'rning g'oyaviy-badiiy yo'nalishi, o'zbekchaga to'g'ri ko'chirilgan. Bunga tarjimon original muallifi maqsadini to'g'ri anglashi va frazeologik birikmalar, maqol, metal, realiya va boshqa leksik, poetik komponentlarni muqobil o'girish orqali erishgan. Biz o'zbek tilida Shiller tasvirlagan ilhom tulpori Pegasni, ziqna Hansni, "och qolgan shoir" ahvolini va tog'dan tushib kelgan yigitning muomala-munosabatlarini xuddi Shiller ifodalaganday tasavvur qilamiz.

"Asoratdagi Pegas"ning tili maqol, metal, realiya, turli xil frazeologik birikmalarga boyligi bilan shoirning boshqa shu singari poetik asarlaridan ajralib turadi. Shoir asarni yaratishda she'rning tarkibiy qismi bo'lgan bu komponentlardan, umuman, nemis tili leksik boyligidan o'rinli foydalangan. She'r mag'ziga singib ketgan bu komponentlar shoir ilgari surgan g'oyani yoritishga bo'ysundirilgan. Tarjimada asarning lisoniy xususiyatlari, obrazlarning qayta tiklanishi, hazil-mutoyiba, frazeologizmlar o'rinli berilgan. Mutarjim tarjima jarayonida siyqasi chiqib ketgan (банальное слово)

so'zlaridan qochadi, asliyatdagi badiiy tasvirning rang-barangligini ifodalashga kuchi yetadigan poetik so'zlar axtaradi. Misol:

Mana, sharmandali qismatga bandi,
Tulpor novvos bilan chiqar maydonga
Behuda yer tepar samo farzandi,
Behuda intilar ona osmonga.

Novvos-chi? Sudralar eggancha boshin,
Egilar darddan Feb arg'umog'I ham.
Faqat zanjirlari jaranglar mash'um,
Faqat qanotlari qayrilar bu dam.
Xudo manglayini silagan tulpor-
Yiqilar, azobdan yosh to'kib zor-zor.

Satrlardagi *“sharmandali qismatga bandi, samo farzandi, ona osmonga egilar darddan Feb arg'umog', xudo manglayini silagan tulpor, zanjirlari jaranglari mash'um, qanotlari qayrilar, yosh to'kib zor-zor, yiqilar azobdan”* kabi asl nusxa bilan bellasha oladigan poetik tasviriy iboralari yerda g'amga burkanib qolgan, bo'yniga zanjir solingan *“samo farzandi”* Pegasning qiynoqlaridan qaddi bukulganini, jabr-zulmdan yosh to'kib zorlanganlarini ifodalashga xizmat qilyapti. Asliyatdagi ko'tarinkilikni tasvirleydigan *“in lächerlichem Zuge, das Flügelpferd den alten Flug zu nennen, Phöbus, das edle Götterpferd, von Gram gebeugt, zu Boden stütz (en)”* lar o'zbek tiliga yuqoridagidek mahorat va topqirlik bilan o'girilib, tarjimaga originaldagidek ohangdorlik baxsh etdi deyishimizga to'la imkon beradi.

Behuda yer tepar samo farzandi,
Behuda intilar ona osmonga.

.....

Faqat zanjirlari jaranglar mash'um,
Faqat qanotlari qayrilar bu dam,

misralalaridagi bir xil so'z asosida tuzilgan *“behuda...behuda, faqat... faqat”* anaforalari asar qahramonlaridagi ruhiy holatni yana ham bo'rttirib ko'rsatayapti. ASI

nusxada bo'lmagan, ammo o'zbekchada o'rinli ishlatilgan bu anaforalarni qo'llash bilan tarjimon Pegasdagi ko'tarinkilinki ifodalabgina qolmasdan balki asarga bo'lgan qiziquvchanlikni yana ham kuchaytirgan va bu stilistik usul orqali original ruhiga kirib brogan Shu yo'l bilan tarjimada asliyatdagidek badiiy rang-baranglik, tasvir tiniqligi kashf etilgan. Lekin she'r tarjimasida original bilan xamohangligidan va she'r botinida yashiringan g'oyani mutarjim to'g'ri qayta tiklanganligidan qat'i nazar, asliyat bilan tarjimaorasida bir-biridan farq qiladigan ayrim o'rinlar ham yo'q emas. Buning uchun "Asoratdagi Pegas" ni uch badiiy qismga bo'lib, lingvopoetik tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi qismda, och qolgan shoirning "Ilhom tulpori" ni bozorga chiqarib sotish jarayoni tasvirlangan. Kuch-quadratini taniga sig'dira olmay "yollarin silkitib", "ko'klarga sapchib" uchaman deb kishnab turgan qanotli ot va bunday hayratlanib "yoqasin ushlagan" ("yoqasin ushlamoq" tarjimasiga keyinroq to'xtalamiz) atrofdagi odamlarga otning qanoti borligi ma'qul bo'lmaganligi tasvirlangan. *Ikkinchi qismda*, otga xaridor Hans topiladi, Hans uni uyga olib kelib ho'kiz bilan birgalikda qo'shga qo'shadi. Ishlatib kuchini olmoqchi bo'ladi, ot bo'lsa faqat moviy samoga intiladi. Hans, siltanib, osmon-u falakka intilgan otni g'azab bilan qamchilaydi, yem bermay och qo'yadi, ot bo'lsa ochlikdan, azobdan qaddi bukiladi, yerga qulaydi. Asar finali *uchinchi qismda* harakatlar tantanavor tugaydi. Bu qism muallif ilgari surgan g'oyani ochishga xizmat qiladi. Mazmuni "Azoblardan, g'amlardan qaddi bukilgan tulpor qoshiga tog'dan bir yigit tushib keladi va "qahri lovullab" turgan Hansga"

Birodar jahlingni tark ayla bir pas.-

Sen o'zi aftidan bu yerlik emas,

Ayt, hech ko'rganmisan, hayvon bilan qush

Bir qo'shda yurganin? Diqqat bo'lma, bas.

Yaxshisi otingni bera qol menga,

So'ng uning hikmatin ko'rsatay senga, - deydi.

Chavandozning qo'li tekkani zamon Pegasning g'amli pinadi. Bu majoziy obraz botinida ramziy ma'no mavjud. Iqtidorni, qobiliyatni tarbiyalash kerak, shoir ilhomini qul qilib sotib olib bo'lmaydi va uni majbur qilib ishlata olmaysan ham, u har qanday

zanjirdan, tahqirdan holi bo'lmog'i darkor, degan chuqur g'oya yotibdi. Shoir obrazi alohida e'tiborga loyiq, uning zamirida ijodkor xalqning orzu-istaklari, ezgulik yo'lidagi intilishlari, yashash uchun kurashi mujassamlashgan. Yana ham aniqrog' aytsak, shoir obrazi tasvirida Shillerning konkret qiyofasini, uning individual o'y-fikrlarini ko'ramiz. Agar Shiller tarjima holini sinchiklab o'qib chiqsangiz, ayniqsa uning umr nihoyasida ochlikdan azobda kun kechirganini, yozgan asarlarini teatrma-teatr sotish uchun olib yurganinnig guvohi bo'lamiz.

Tarjimada mazmun va shakl birligi asosiy dialektik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Bir xalq adabiyoti mazmun va shakl jihatdan bir butunlikni tashkil etib, san'atkorona o'girilgan asarlarga umrboqiydir. Shu ma'noda, tarjimada mazmunu va shakl birligi saqlanganmi, hijolar soni asliyat bilan tengmi, sinonimik qatorni tashkil qiluvchi "*Pegasus*"ning yigirmaga yaqin ma'nodosh shakli tarjimada asl nusxadagidek tiklanganmi, originaldagi salbiy emotsiya (qahr-g'azab) tarjimada o'rinli berilganmi, maqol va realiyalar tarjimasi qay ahvolda, olmon xalqining o'ziga xos milliy xususiyatlarini, mentalitetini ifodalaydigan o'rinlar o'zbekchaga qanday o'girilgan? kabi savollarga javob axtarishga to'g'ri keladi.

Avvalambor, Shillerda (V. Levikda ham) 92 misradan iborat bu she'r o'zbekchada bir misra (93) ga ortgan. Biroq shakldagi o'zgarish pamphlet mazmuniga ta'sir ko'rsatmagan. Asosiysi, asarda ilgari surilgan badiiy g'oya, shoirning ijodiy niyati saqlangan. Lekin tarjima original bilan hamohangligidan, she'r botinida yashiringan g'oya to'g'ri qayta tiklanganidan qat'inazar, asliyat bilan tarjima orasida bir-biridan farq qiladigan o'rinlar mavjud.

Misralarga e'tibor qilaylik:

Nemischada: Auf einen Pferdemarket-vielleicht zu Haymarket,
Wo andre Dinge noch in Ware sich verwandeln,
Bracht einst ein hungriger Poet
Der Musen Roß, es zu verhandeln.

Ruschada: На конные торги в месточке Хаймаркет
Где продавали всё – жён законных даже,–
Изголдавшийся поет

Привёл Пегаса для продажи.

O'zbekchada: Haymarketda bo'lardi ot savdosi,
Sotilardi hatto jufti halollar.
Chor-nochor och qolgan shoir Pegasin
Mana bozorga solar.

She'r sistemasi kesma, ab – ab shaklida qofiyalangan bo'lib, asliyatdagi bu qofiya sistemasi uch tildayam originalga hamohang jaranglaydi. Bu misralarni shakl jihatdan (hijolar soni nazarda tutilayapti) solishtirganimizda uchala matnda uch xil ko'rinsada, mazmun jihatdan uyg'unlik mavjud. To'rtinchi misradagi “der MUsen Roß”, “Ilhom tulpori” qofiyani saqlash uchun bo'lsa kerak, “Pegas” bo'lib uchinchi misraga ko'tarilgan. Ruscha matnda originaldagiday to'rtinchi misraga joylashtirilgan.

“Wo andre Dinge noch in Ware sich verwandeln” ga to'g'ri keladigan “Sotilardi hatto jufti halollar” misrasi biroz g'aliz ko'rinadi, chunki tarjimaga jiddiyroq yondashsak, originalda na “jufti halollar” birikmasini, na “sotmoq” so'zini uchratasiz. Bundan tarjimada chal-kashlikka yo'l qo'yilganday bo'lib tuyuladi. Aynan o'sha misrani tarjima qilsak “Boshqa narsalar tovarga aylanadigan joyda” mazmuni kelib chiqadi va birinchi misradagi “Haymarket” realiyasini mazmun jihatdan to'ldirib keladi (Ya'ni “Haymarketda, boshqa narsalar tovarga aylanadigan joyda”). Balki Shiller “andre Dinge – boshqa narsalar” deyish bilan o'sha ot bozorida “jufti halollar” ham sotilishini nazarda tutayotgan bo'lishi mumkin. Bu fikrimizni quvvatlaydigan dalil “Haymarket” tarixiy – geografik nomi, Londondagi shahar kvartallaridan birining nomi bo'lib, bu yerga erkaklar hatto xoinlik, bevafoqlik (“bevafo” ga alohida urg'u beramiz) qilgan xotinlarini keltirib sotish faktidir. Bu haqda ba'zi manbalarda o'qish mumkin. Bundan xabar topgan V. Levik tarjimaga “продавали всё – и жён законных даже”- iborasini olib kirib, “Haymarket” zamiridagi mazmuni ikkinchi misraga joylagan. Ehtimol, V. Levik shu iborani qo'llash bilan bu holatga alohida urg'u berib, o'quvchi e'tiborini aynan shu nuqtaga tortmoqchi bo'lgan bo'lsa ajabmas. Darhaqiqat, o'zbek tilida ham

“Sotilardi hatto jufti halollar” deb qayta tiklangan. Biroq, shu o’rinda V. Levikning qarashlariga, fikrlash tarziga biroz e’tiroz bildirish mumkin.

Tarjima mantiqan to’g’rimi? Agar u “jufti-halol” bo’lsa, nega uni bozorga olib chiqib sotadi? Nemis shoiri ishlatgan realiya “Haymarket” zamirida “jufti-halollar” emas, balki shu bozorda G’arbiy Yevropa xalqlari eski urf-odatlariga ko’ra erlariga xoinlik qilgan xotinlar sotilishi fakti mujassam. Bu tarjimada “bevafo xotinlar” yoki “bevafo yorlar” o’rniga tazod shaklida “jufti-halollar” deb ifodalangan. Agar o’sha birinchi to’rt misra:

Haymarketda bo’lardi ot savdosi,
Sotilardi hatto bevafo yorlar.
Chor-nochor och qolgan shoir Pegasin
Mana bozorga solar, -

Tarzida tarjima qilinganda edi, she’r shakliga putur yetmagan holda mazmun jihatdan to’liq satriklar chiqqan bo’lur edi. Darvoqe, „...Originaldan chetlatish ham, unga yaqinlashish ham faqat bir maqsadga : originaldagi boylikni to’la saqlab qolishga qaratilgan bo’lishi kerak”¹

Aslida geografik realiyalar voqea-hodisa va harakatlarning o’rnini, davrini belgilashga xizmat qilsa-da, “Haymarket” joy nomi asardagi voqeaning realligini va bu voqealar aynan “Haymarket” da bo’lib o’tganligini isbotlay olmaydi. Chunki asar syujeti mif asosiga ko’rilgan bo’lib, majoziy mazmun kasb etadi. Tarjima V. Levik asosida qayta tiklanganligi tufayli, bu nuqsonlar o’zbek tilida ham takrorlangan. Keyingi

“Chor-nochor och qolgan shoir Pegasin,
Mana, bozorga solar”, -

Kabi 3-4 misralarda shakl jihatdan notekislik mavjud. Uchinchi misraning hajmi originalga qaraganda hijolar soni jihatdan ancha kengaygan, to’rtinchi misra kichraygan bo’lsa-da (Masalan, originalda 8-8, ruschada 8-9, o’zbekchada 11-7) mazmunan asliyatga monandir.

¹ Sharafiddinov O., Tarjima san’ati. Maqolalar to’plami. 1 kitob. Toshkent. O’zdatnashr. 1961. 154 bet.

Tasvirlash vositalaridan biri – *sinonimlar* ham tarjimada ahamiyat kasb etadi. Bunday sinonimik qatorni tashkil qiluvchi soʻzlardan biri originaldagi shoir ilhomi obrazi, uchqur qanotli ot Pegasdir. Shiller takror va gʻalizlikka yoʻl qoʻymaslik uchun bu soʻzning yigirmaga yaqin maʼnodosh shaklini topib qoʻllagan. Jumladan, “Pegasus, deeer Hippogruf, der Musen Roß, Phöbus, stolzes Roß, der Vogel, das Pferd, das Tier, das Flügelpferd, der Greif” desa, yana bir joyda “das leichtbeschwingte Pferd, das königliche Tier, das edle Tier, das edle Götterpferd, die muntere Krabbe, verwünschtes Tier, das vor’ge Wesen, ein Geist, ein Gott”. Baʼzan shoir “*Pegasus*” ni nemis tilidagi kishilik olmoshi “es” bilan berib, originalga rang-baranglik baxsh etgan. “der Greif” soʻzi “der Hippogruf” ning qisqargan shakli. asarda Pegasni ifodalash uchun yigirmaga yaqin maʼnodosh soʻzlar qoʻllanishining oʻzi asl nusxa muallifi tilining naqadar boyligini anglatadi. Biroq bularning baʼzilari, masalan, “ein Geist, ein Gott” soʻzlari, kontekstdan tashqarida sinonim boʻla olmaydi. Ular faqat kontekstual sinonimlardir. Bu soʻzlar oʻzbek tiliga “ruh”, “maʼbud yoki Olloh” deb oʻgiriladi. Shiller Pegasni ruhga, maʼbudga qiyos qilib, asar nihoyasida tutqinlikdan ozod boʻlgan qanotli ot osmonlarda “ruh” ga aylanib “maʼbud” boʻlib ucha boshladi, demoqchi.

“Sinonim soʻzlardan foydalanish original badiiy asar yaratishda qanchalik muhim boʻlsa, badiiy tarjimada sinonim tanlash yana ham katta ahamiyatga ega”. Badiiy asarda sinonimlar yozuvchi fikri, qahramon his-tuygʻularini, uning asosiy xususiyatlarini aniq va ravshan ifodalashga, tildagi bor goʻzallikni, rang-baranglikni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Muqobil variantlari topib oʻgirilgan maʼnodosh soʻzlar tarjimada ham xuddi shu funksiyani oʻtaydi. Yuqorida sanab oʻtilgan maʼnodosh soʻzlar qatori V. Levikda bir oz kamaygan, u “Пегас гиппогриф, крылатый конь, конь, птица, проказник, гриф, лошад, проклятый зверь, могучий дух, он бог, он цар” deb tarjimada bu obrazning oʻn ikkita koʻrinishini ishlatgan. Oʻzbek tarjimoni “Pegas, ot, qush, tulpor, hayvon, samo farzandi, Feb argʻumogʻi” lardan foydalangan. Bu ikki tarjimada ham original, rang-barangligi va mazmun tiniqligi u yoki bu darajada soʻngan va asliyatdagi obrazli ifoda maʼlum darajada kambagʻallashgan. Nemis tilidan oʻzbek

zaboniga yetib kelguncha asliyatda yigirmaga yaqin ko'rinishi bo'lgan "Pegas" ning faqat yetttita atamasi qolgan.

Shoirning deyarli barcha asarlari o'zining emotsional-ekspressivligi bilan boshqa zamondosh shoirlar ijodidan ajralib turadi.."Asoratdagi Pegas"da ham asar qahramonlardagi his-tuyg'u va hayajonni ifodalovchi qator emotsional xususiyatga ega so'zlar uchraydi.Masalan:"verwünscht, edl, königlich, prächtig, lächelnd, laut ausbrechen, Grimm, Zorn, Wut, lustig, zierlich, wunderlich, Wunder, Blitze spüren, majestätisch, Gramm" va hokazo.Bu ekspressiv- emotsional so'zlar Shiller ruhiyatidagi ko'tarinkilinki ifodalashga xizmat qilyapti."Verwünschtes Tier!"iborasi Hansning uchqur qanotli ot – Pegasga nisbatan salbiy – emotsional munosabatini anglatmoqda.Bu salbiy ekspressiv – emotsiya V.Levikda asliga monand "Проклятый зверь!" deb muqobil tarjima qilingan-u, o'zbekchada negadir "Ey hayvon!" deb berilib, emotsiyadagi salbiylik biroz susaygan va qahr-g'azabni ifodalaydigan "lanati" so'zi o'rniga his-hayajonni ifodalovchi "ey" undovi ishlatilgan.Fikrimizcha, tarjimaning bu ikki variantidan ham voz kechib "hayvon" ning tarjimadan tushib qolishidan cho'chimasdan, ular dunyosiga xos, kuchli salbiy emotsional holatni ifodalaydigan obrazli leksik birikma "Harom o'lgur" deb topqirlik bilan o'girilganida ayni muddao bo'lar edi va Shiller personaji nutqidagi salbiy emotsiya, ko'tarinkilik, o'zbekchada mazmun va shakl jihatdan to'la tiklanardi.Ya'ni:

"Verwünschtes Tier!" – bricht endlich Hanses Grimm"ni

"Harom o'lgur!" – Hans qahri lovullar nogoh" tarzida.

Biroq Muhammad Ali bu borada boshqa yo'l tutgan.Balki u tarjimada ritmni saqlash, qofiya va hijolar sonini tenglashtirish maqsadida"verwünscht – проклятый – lanati" ning bahridan kechgan bo'lsa kerak.To'g'ri, tarjimon

"Ey hayvon!" – Hans qahri lovullar nogoh",

Savalay ketadi otni beqaror,

Deb tarjima qilar ekan, u personaj nutqidagi qahr – g'azab bilan muallif nutqidagi shiddatni bir-biriga singdirib yuborish va "lovullar" so'zi orqali obrazga tegishli bor qahr – g'azab, salbiy emotsiyani muallif nutqiga ko'chirish yo'lidan bormoqchi bo'ladi

va shu yo'l bilan asliyatning badiiy ta'sir kuchini saqlab qolisga erishadi. Biroq bu Hans murojaatidagi badiiy obrazlikning tarjimada ancha susayib ketganligini oqlay olmaydi.

Badiiy asarlarda personajlarning so'z va replika "javob, luqma tashlash, gap qistirish, e'tiroz)lari har xil harakatlar bilan ifodalanadi. Bu ifoda jest(imo – ishora) va mimikalar (yuz mushaklarining kechirilayotgan tuyg'ularni ifodalaydigan harakatlari) kishilarning ichki dunyosini, ularning o'z-o'zlari bilan bo'lgan kurashlarini, hayratlarini, his-hayajonini, g'amini, kayfiyatini, birir voqeaga yoki narsa va predmetga bo'lgan munosabatlarini bildiradi(Har bir kishi – qaysi millatga mansub bo'lishidan qat'iy nazar – yuz ifodasi, turq- tarovati, harakat, imo-ishoralari bilan o'zining qaysi millat kishisi ekanligini sezdirib qo'yishi mumkin). Tarjimon har bir xalqning o'ziga xosligini, uning imo-ishora va yuz-ko'z ifodalaridan tortib, qo'l harakatlarigacha barcha farqli tomonlarini yaxshi bilmog'I kerak. Chunki tarjimada bunday nozik belgilarni chuqur anglash , "imo-ishoralar" tarjimasini to'g'ri talqin etish juda muhimdir..."Imo-ishoralarni umuminsoniy deb hisoblash, ular hamma xalqlarga va maxsus izohsiz tushunarli bo'ladi deb o'ylash soddalikdir".

Bu ko'rinishlar har bir xalqning mentaliteti, o'ziga xosligi, urf-odati, udumlari bilan chambarchas bog'liq. Demak, har bir xalqning o'ziga xos milliy xususiyatlari ularning jest va mimikalarida ham mujassamlashar ekan, bu jihatdan G'arb va Sharq xalqlari orasida farqli tomonlar mavjud. Asosan dialoglarda ko'proq bo'ladigan bu ko'rinishlarni biz ba'zan she'riyatda ham uchratamiz. Masalan, "Asoratdagi Pegas"da: "Hayratdan yoqasin ushlaydi, hayhot" misrasi bor. Asar qahramonlari ichki dunyosidagi tinch oqimda paydo bo'lgan to'lqin ularning tashqi qiyofasiga ko'chgan va ular hayratda yoqa ushlaganlar. Shu tashqi harakat qahramonning ichki dunyosidagi kechinmasini ifodalagan. Biz asosiy e'tiborni "yoqasin ushlamoq"leksik birikmasiga qaratmoqchimiz. Aslida, hayratlanganda "yoqa ushlash" O'rta va Yaqin Sharq xalqlariga xos odat bo'lgani uchun (shu xalqlar ruhiga qadim-qadimdan singib ketgan) bu ko'rinish G'arbiy Yevropa xalqlari, jumladan, nemis xalqi urf-odatiga, umuman xristian diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar tabiatiga tamoman zid harakatdir. Bu harakatni nemis xalqining milliy ruhiga hech ham singdirib bo'lmaydi. Yevropa xalqlari

hayratlanganda og'zi ochilishi yoki ko'zlarini katta-katta ochishi mumkin, ammo hech vaqt yoqa ushlamaydilar.

Xalq og'zaki ijodining barcha janrlari qatori badiiy adabiyotda maqol va matallar muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha xalqlarda bo'lganidek, folklor janrlaridan biri bo'lgan maqol nemis xalqida ham qadim-qadimdan mavjud. Maqollar obrazli ifodalar bo'lib, fikrni, bo'layotgan hodisaga munosabatni lo'nda, ixcham, siqiq hamda yorqin ifodalaydigan birikmalardir. Shiller asar tilini badiiy jihatdan yuksaklikka ko'tarish, qahramonlar nutqini individuallashtirish uchun xalq tilidagi obrazli ifodalar, maqol, matal va epitetlardan unumli foydalangan. Mutarjim bularni tarjimada asliyatga monand tiklash uchun ona tilidagi imkoniyatlardan foydalanishga harakat qilgan. Xo'sh, asar tilining jonli, ta'sirli chiqishiga sabab bo'lgan she'rdagi bu obrazli iboralar, maqol va matallar, tarjimada qanday berilgan?

Badiiy tarjimada mutarjim uchun murakkablik tug'diradigan yana bir jihat chet tilidagi maqol, matal, idioma, frazeologik birikmalarni o'z tilida muqobilini topish. Originaldagi "Gesagt, getan!", "Ein Mann, ein Wort!" (V. Levikda "Сказал и сделал; По рукам.") maqollari o'zbek tilidagi "Aytilgan gap, otilgan o'q; Er yigit bir so'zlik bo'ladi; Va'da berdingmi – bajar" larga ekvivalent bo'la oladi. Bu maqollarning o'zbek tilida yana "Va'da vafosi bilan" kabi varianti bor. Asardagi personaj holatiga qarab singdirilgan bu maqollar tarjimada qanday berilgan? O'zbek tilidagi "Aytilgan gap, otilgan o'q, er yigit bir so'zlik bo'ladi, va'da berdingmi – bajar" maqolini Muhammad Ali o'zbek maqoli siyratidagi mazmunni saqlab, "Aytdimi, bas!" deb, she'r tarjimasining ichki qonuniyatlarini hisobga olgan holda, ixchamlashtirib tarjima qilgan. "Gesagt, getan!" "Aytdimi, bas." deb o'girilib, ayni o'rniga tushgan bo'lgan, kishilarni mardlikka, bir so'zlilikka undaydigan "Ein Mann, ein Wort!" maqoli o'zbek tilida o'z aksini topmagan. Agar aynan shu maqolni V. Levik asosida o'girsak: "Kelishdik!. Qo'lni tashla! Yoki Qo'lni ber!" kabi ko'rinishlarda bo'ladi. Vaholanki, ta'kidlaganimizdek buning "Er yigit bir so'zlik bo'ladi, Va'da berdingmi bajar" kabi o'zbek tilida muqobil variantlari bor. Nemis xalqi "aql idrokining mahsuli" bo'lgan bu maqol o'zbek tilida qayta tiklanmagan. Tarjimon o'zga tilidagi maqol, matal, hikmatli so'z va iboralarning tarjima qilinayotgan tilda ekvivalentini

topsagina, originaldagi mazmun va ifodani to'raligicha o'quvchiga yetkazib bergan bo'ladi. Aytilgan fikr-mulohazalar, bildirgan ba'zi e'tirozlarimiz tarjima saviyasini pasaytirmaydi. Yutuqlar bor joyda kamchiliklar, bahslar bo'lishi tabiiy. Bu fikrlar bizda kelajakda tarjima asarlar saviyasini yanada yaxshilashga yordam beradi degan umid tug'diradi.

2009-yili F.Shillerning 250 yilligi munosabati bilan bu pamflet Muhammad Ali tomonidan yana qayta o'girildi. Biroq bu gal she'r sarlavhasi "Qo'shga qo'shilgan Pegas" deb o'zgartirilgan. Sarlavha she'rning ichki mazmuniga to'g'ri keladi. Bu bilan birgalikda shoirning "Russo", "Yerning taqsimlanishi" asarlari tarjimasini ham "Shodlik, ey sen, ilohiy olov" nomi ostida berilgan.

XXI asr ostonasida Shiller ijodidan qilingan tarjimalarga mashhur "Shodlikka qasida" ("Ode an die Freude") asarini ko'rsatish mumkin. Shoir o'z so'zlari bilan aytganda, "Shodlik qasida"si xalqona yo'ldagi she'rdir. Qasidadagi shoirni ilhomlantirgan birdamlik, tenglik va ozodlik pafosini Betxoven monumental musiqiy shaklda o'zining to'qqizinchi simfoniyasining oxirgi qismida ifodalagan. Qasidani Muhammad Ali o'zbekchalashtirib, "Lorelay. Olmoncha-o'zbekcha she'riy antologiya"ga kiritgan. 100 misralik bu asar tarjimada 96 misra bo'lib qolgan. Shaki nomutanosibligiga qaraganda, qasida I.Mirimskiydan o'girilganga o'xshaydi. Tarjimada fikr uyg'otgan o'rinlar bor. Bu tarjimini alohida ob'ekt qilib olib, lingvopoetik jihatdan komparativistik aspektda tahlil qilishni taqozo etadi.

Xullas, chet el adabiyoti namunalaridan o'zbek tiliga o'tkazish ishlari bilan shug'ullanayotgan mutarjimlar xorijiy yozuvchining rus tilidagi matniga tayanib qolmasdan, asl nusxaga yo'l topishga intilishlari lozim. Shu bilan birgalikda, har bir tarjimon:

- dramatik va poetik tarjima prinsiplariga qat'iy rioya qilishi va juda boy leksik bazaga ega bo'lishi bilan birga, har bir so'zning salmog'ini aniq bilishi shart;
- o'zga xalq poetikasidagi ohangni, ritmni tuyishi talab qilinadi;
- ikki xalq tilidagi hazil-mutoyiba, so'z o'yinlari, qochiriqlarni va o'ziga xos milliy tushunchalarni bilishi shart;

-janr (drama va poeziyadagi) xususiyatlarini bilishi va ikki davr orasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan xabardor bo'lmog'i kerak.

-ikki tildagi grammatik kategoriyalarning farqli tomonlarini bilishi shart.

XX asrning 30-yillari o'zbek adabiyoti va teatri san'atida Shiller va Shekspir davri deb tan olingani ma'lum. O'zbek-nemis tarjimashunoslik yo'nalishining 70-80-yillarini hech ikkilanmasdan, Gyote va Shiller davri desak xato bo'lmas. Chunki bu ikki nemis adibi ijodidan o'zbek tiliga qilingan turli janrdagi (tragediya, drama, ballada, hikoya, pamflet,) tarjimalarning ko'pi shu davrga to'g'ri keladi. Gyotening "Faust" tragediyasi, "Yosh Verterning iztiroblari" sentimental romani, "G'arbu Sharq devoni" dan parchalar. Shillerning "Mariya Styuart" tragediyasi, "Qo'lqop", "Gero va Leandr" balladalar, bir qancha she'rlari shu yillarda o'zbekchalashtirilgan.

1980-yillarda nemis adibi ijodiga qiziqish, uni har tomonlama o'rganish jiddiy tus oldi. Shoir ijodidan o'g'irish va o'rganish ishlarida malakali tarjimon va tadqiqotchilarning safi kengaydi. Undan o'g'irmalar qilish bilan birgalikda, tarjimalarning badiiy xususiyati va saviyasini qiyosiy aspektda o'rganishda yangi davr boshlandi. O'zbek shillershunoslari alohida yo'nalish sifatida shakllandi. Bu "Jahon adabiyoti durdonalari" seriyasida nashr qilingan "Makr va muhabbat" tarjimalar to'plamining bir jildligi, "Shiller adabiy merosi O'zbekistonda" risolasi, bir necha dissertatsiyalar, vaqtli matbuotda ilmiy-nazariy, ommabop maqolalar e'lon qilingani, ijodidan bir qancha yangi she'r va balladalar tarjima qilingani bilan namoyon bo'ldi.

Shiller adabiy merosining katta bir qismini balladalar tashkil qiladi. Jumladan, "Taucher", "Der Ring des Polykrates", "Ritter Toggenburg", "Die Kraniche des Ibykus", "Der Gang nach dem Eisenhammer", "Hero und Leandr" va hokazo.

"Ballada" asli fransuzcha "ballade" dan olingan bo'lib she'r, qissa yoki hikoya harakteridagi musiqiy asardir. "Ballada – hikoya qilib berish tarzida yozilgan dramatik va lirik mazmundagi she'riy asart shakli" ham deyiladi. "Ballada lirik pieziyaning epik harakterdagi janrlaridan biri bo'lib, u kichik syujetli she'rdir. Unda voqea bilan birga shoirning his-tuyg'ulari ham aks etadi. U O'rta asrlarda Fransiya va Provansda tarqalgan, o'yinga tushib aytiladigan ishqiy xalq qo'shiqlaridan kelib chiqqan, keyinchalik Italiyaga o'tgan. Bu yerda Aligere Dante, Franchesko Petrarka poeziyasida

ballada bandlari qat'iy lashadi va ritsarlik qo'shiqlari ta'sirida o'yinga tushib ijro etilish karakteri yo'qoladi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab dramatik karakterdagi ingliz – shotland balladlari butun Yevropa adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ingliz shoirlari R.Byorns, S.Kolridj; nemis romantik ma'rifatchilari B.Byurger, F.Shiller, Y.V.Gyote, H.Hayne, L.Uland; rus shoirlari V.Jukovskiy, A.S.Pushkin, M.YU.Lermontov, A.K.Tolstoylar balladaning ajoyib namunalarini yaratdilar.¹ V.A.Jukovskiy Shiller, Gyote, Byurger balladalarini o'girib, rus adabiyotini boyitdi. "Ger ova Leandr" balladasini rus tiliga juda ko'p shoir-tarjimonlar o'giran. Masalan, A.Kotchekov, V.A.Jukovskiy, V.Levik va hokazolar. Har bir tarjima o'z davrining yetuk asari bo'lib qolgan.

M.Ibrohimovning "O'zbek balladlari"² kitobida G'arbiy Yevropa va nemis balladlari to'g'risida kuzatuvlar qilingan. "Balladada shoir biror hayoliy va xalq afsonasini topadi yoki bunday voqeani o'zi o'ylab chiqaradi. Lekin undagi muhim narsa voqea emas. U uyg'otgan sezgidir, o'quvchiga u bergan uydur"³, deb yozgan edi V.G.Belinskiy.

Nemis adabiyotida ballada janrining paydo bo'lish davrini manbashunoslar 1773 yilga nisbat berishadi. Bu nashhur "Lenora" balladasini yozilishi bilan boshlangan. O'lik kuyov qo'shig'ini eshitib bundan qattiq ta'sirlangan Godfrid Byurger shu qo'shiq syujeti asosida "Lenora" balladasi yozgan ekan. Balladada yosh qiz Lenoraning fojiali taqdiri bayon qilingan. Keyinchalik bu janrda Gyote, Shiller, Hayne, Uland, Platen kabi nemis shoirlari qalam tebratganlar. "Lenora" balladasi ko'p tillarga tarjima qilingani bois, nafaqat nemis balki jahon poeziyasida mashhurlik kasb etdi va jahon adabiyotida ballada janrining boshlanishiga asos bo'lib xizmat qildi. G.Byurgergacha ham nemis xalq og'zaki ijodida ballada janri bo'lgan.

1984-yil Fridrix Shiller tavalludi bilan Omon Matjon mashhur "Qo'lqop" balladasi va "Russo", "Kolumb", "Zamin taqsimoti", "Nechuk shirin baxt ekan..." kabi

¹N.Hotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. Toshkent.

"O'qituvchi". 1979. 39 bet.

²Ibrohimov M., O'zbek balladasi. O'zbekiston CCR "Fan" nashriyoti. Toshkent.

³Belinskiy V.G., Tanlangan asarlar. Toshkent. O'zdamnashr. 1955. 191 bet.

she'rlarini rus tili va asl nusxa orqali o'girdi. Bu tarjimalar Omon Matjonning nemis klassik adabiyotidan ilk o'girmalari edi.

”Russo” she’ri Parij yaqinidagi Erminonveleda ma’rifatparvarlik davri buyuk fransuz yozuvchisi, kompozitor va faylasuf Jan Jak Russoga qo’yilgan haykalga murojaat tarzida yozilgan. Jan Jak Russoga baxshlangan bu she’r originalda 14 bandlik 84 misradan iborat. Rusxhada 2 band, 12 misraga tushib qolgan. Ruscha variant asos bo’lganligi uchun she’rning hajmi o’zbekchada ham 12 misradan iborat bo’lib qolgan. Tarjimada she’rning asosiy g’oyasi o’z ifodasini topgan.

Shakl jihatdan uncha katta bo’lmagan “Kolumb” she’ri jasur dengiz sayyohi Xristofor Kolumbga bag’ishlangan. ”Zamin taqsimoti” she’rida esa, Shiller insonlarga zaminni taqsimlayotgan osmon hukmdori Zevs bilan turli hayollar og’ushida taqsimotga eldan so’ng kechib kelganshoir oralaridagi suhbatni asosiy ob’ekt qilib olgan. She’r 1795-yil oktabr oyining boshlarida yozilgan. 1795-yilning 16-oktabrida Gyote Shillerdan xat oladi. Xatda „Zamin taqsimoti“ ham bo’lgan. Unda shunday deyilgan. „... Agar she’rlar Sizda qoniqish hosil qilib, undagi g’oyalar sizni quvontirsa, ularni gersogga o’qib berarsiz“. Shoir she’rni O. Matjon tarjimasi:

”Voh men sho’r peshona! Ey ismi qodir!

Sodiq bir o’g’lingga nahot hech vaqo?! -deydi.

Zevs: Behuda hayollar sarhadlarida,

Keznishsan! Maloldir endi talabing!

Qayda erding taqsim soatlarida?!

Shoir: Sening birlan erdi dilim matlabim!

Nurli so’zlaringa bog’lab imonni

Yeriy in’omlardan bexabar jonni.

Muhammad Ali tarjimasi:

“O, qismat! – oh urdi shoir. -Nahot, yolg’iz men

Ehsoningdan benasibman? Shundog’mi azming?

Fidoyi bir o’g’lingman-ku! ... Rahm aylagil sen...”

Biroq osmon hukmdori so’z dedi vazmin:

Zevs: “Nafsiz orzu-hayollarga qul bo’ldingmi, bas,

Ko'z yosh to'kma, kerak emas nolayu nido.

Buyuk taqsim pallasida qaydayding, ey kas?..."

Agar tarjimalar matnini qiyosan solishtirib ko'rsak, Omon Matjon tarjimasida fikrlar lo'nda ifodalanganini, jozibador, shirali badiiy tilni ko'rasiz, o'ziga xos bir poetik ohang taralib turganini his qilasiz. Muhammad Alida, birinchidan, so'zlar yoyiq va serob, ko'p qaytariqlar uchraydi. Tarjimonning estetik didi, poetic tili birinchi tarjimaga qaraganda, poetik ohang sust.

Chunonchi, she'r sarlavhasi "Zamin taqsimoti"ning "Yerning taqsimlanishi", "insonlarga"ning "odamlarga" deb berilishi ham tarjimada badiiy ohang susayganidan dalolatdir. Qolaversa, yerning taqsimlanishi deganda konkret, aniq bir joy tushunilishi mumkin, butun zamin emas. Asarda Zevs butun zaminni taqsimlayapti, chunki u butun zamin hukmdori. Taqsimotdan so'ng zaminda bir misqol ham yerga egasiz qolmagan. She'rning umumiy mazmunidan buni tushunib olish mumkin. To'g'ri, "Yerning taqsimlanishi" rus tilidagi "Раздел земли"ning aynan o'zi. Muhammad Ali tarjimini rus tili asosida amalgam oshirgani uchun bu to'g'riday tuyuladi. Ammo she'rning umumiy fonidan kelib chiqib qaraganda bu— to'g'ri emas. Chunki nemis tilidagi "die Erde" ning "yer-Земля" dan tashqari "der Planet, auf dem wir leben" singari ma'nosi ham mavjud. Demak, buni, ya'ni "die Erde" ni "Biz yashayotgan planeta, sayyora yoki zamin" deb ham o'girish mumkin ekan. Buni to'g'ri his qilgan Omon Matjon she'r sarlavhasi "Teilung der Erde" ni "Zamin taqsimoti" deb berib, ichki bir intuitsiya bilan, mantiqan va badiiy jihatdan originalga juda yaqinlashgan. Muhammad Ali tarjimasidagi:

"Allamahal uzoqlardan keldi shoir jim,

O'yga botgan, ko'zlarini yerdan olmagan..."

Kabi misralarni ham poetik misralar deyish qiyin, u oddiy prozaik gap. Til bilgan har qanday odam bunday gaplar tuza olishi mumkin. Qolaversa, shoir bu yerda jim bo'lmagan. Taqsimdan quruq qolganini, o'ziga hech vaqo qolmaganini sezib, tinchi buzilgan, bezovtalangan.

Originaldagi misralardan anglashilinayaptiki, taqsimotga kech qolib kelgan shoir osmon hukmdori Zevs poyiga bosh qo'yib, shu qadar qattiq qichqirganki, uning zorlangan, hasratli ovozi butun atrofni tutib ketgan.

Muhammad Ali tarjimasidagi "allamahal" vaqtni konkretlashtirayapti, ya'ni kun botganini yoki kech bo'lganini anglatadi. Garchi "allamahal" so'zi originaldagi "ganz spot"ga adekvatday tuyulsa-da, tarjimada she'rning umumiy mazmuniga singmaydi. Originalda vaqt ma'nosida konkretlilik ko'rinmaydi.

Muhammad Ali tarjimasida ba'zi o'rinlarda sof o'zbekcha ifoda saqlanmagani, uning jonli xalq tilidan uzoqlashgani ko'zga tashlanadi, etimologik jihatdan arab va fors-tojik tillariga mansub, dialectal va bugungi kun uchun eskirgan "baytulhazan, hoziq, kalapatra, tujjor, kas"¹ singari so'zlar uchraydi. Tarjimada o'zga tillardan foydalanish, doim ham qo'l kelavermaydi, bu usul she'rni tushunishda o'quvchiga biroz qiyinchilik tug'diradi, garchi "baytulhazan" ga tarjimon "bu g'amxona dunyo, dunyoi bevafo" deb izoh bergan bo'lsa-da. Akademik A. Hojiyev, o'z til imkoniyatidan foydalanmay yoki foydalana olmay, o'zga tildan so'z o'zlashtirish nomaqbul holat bo'lganligini, bu hozir ham kuzatilayotganligini e'tirof etadi.² Professor N. Mahmudov esa: "Hamma zamonlarda bir tildan boshqasiga, ko'pdir-kamdir, so'z o'tib turgan. Bu jarayonlarning muayyan me'yor doirasida bo'lishi tabiiy bir holat sifatida qaralgan, me'yordan ortib ketishi esa, begona tilning so'z bosqini ostida qolgan jamiyatning hamiyatini og'rintirgan"³, deydi. To'g'ri, tarjimada o'zga tillardan foydalanish mumkin, agar u o'z tilingga o'zlashib, singishib ketgan bo'lsa, albatta. Bu birinchidan. Ikkinchidan, "baytulhazan tarjimada orfografik jihatdan noto'g'ri yozilgan." O'zbek tilining izohli lug'ati" da (1981) bu so'z "baytulahzan" deb berilgan. Akademiya tizimidagi arabshunos va matnshunos olimlarning fikricha "baytulahzan" birlik sonda "baytulhuzn" deb talaffuz qilinib, izohli lug'atdagi "baytuahzan" uning ko'plik shakli ekan. Mazmuni "qayg'u, tashvish uyi" yoki biz yashayotgan "tashvishli dunyo" degani. To'g'ri, tarjimon bu misrani, "Ollohni o'ylab, bu foni dunyo tashvishlari hayolimdan ko'tarilibdi" mazmunida berayapti. Aslida,

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomli. Moskva. "Rus tili" nashriyoti 1981.

² Horijiy so'z va terminlardan foydalanishda me'yor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari. Toshkent. 2011.7 bet.

³ O'sha asar. 10 bet ("So'z o'zlashtirishda me'yor va milliylik" maqolasidan)

original mazmuni ham shunday. Ammo tarjimani hamma ham darhol shu ma'noda tushunavermaydi. Yoki kitobxon uni tushunish uchun tarjimadan tarjima qilib, izohli lug'at axtarib o'girishi kerakmi? Asosiy muammo mana shunda. Buni to'g'ri hal qilmaslik tarjima amaliyotida chalg'ish va xatolarni yuzaga keltiradi. Ikkinchi misradagi "... bir bechorani kechirgil, xudo!" birikmasi biz hayotda har kun aytib yoki eshitib yurgan so'zlar. Bu so'zlar tizmasi poetik joziba va ohangdorlik jihatidan bizning shuurimizga "Avf et..... Yeriy in'omlardan bexabar jonni!" (Omon Matjon) chalik ta'sir etmaydi.

"Men sen bilan birga edim, ey hoziq xudo!" misrasidagi "hoziq" ta'kidlaganimizday, bugungi kun uchun eskirgan arabcha so'zdir. Uning "eng tajribali, mahoratli" singari ma'nolari bor. "Hoziq gapda ot yoki otlashgan so'zlar oldida kelib, atribut yoki sifatlash vazifasini o'taydi. Misol uchun, "hoziq tabib" degani. Shundan kelib chiqib qaraganda, "Yerning taqsimlanishida" da "hoziq" "eng tajribali, mahoratli" bo'lib, xudoni sifatlab turibdi, lekin xudoni sifatlashga ne ehtiyoj? Xudo bekamu ko'st-ku! Yoki "tajribasiz, mahoratsiz" ham xudo bo'lishi mumkinmi? Axir, Xudoni oldida har qanday so'z rangsiz, ma'nisiz bo'lib qolmaydimi?! Agar tarjimon misralarda qofiya, bo'g'in va hijolar sonini nazarda tutib, shu so'zni qo'llagan bo'lsa, bizningcha, buning o'rniga bo'g'inlar soni jihatdan teng keladigan o'zbek tilidagi "qodir" so'zini ishlatib, misrani "Men sen bilan birga edim, ey qodir xudo!" deyishi ham mumkin edi. Bu o'quvchiga "hoziq xudo"ga qaraganda tushunarliroq bo'lardi. Masalan, Omon Matjon "Ey, ismi qodir!" yoki "Ul hukmi yakto" deganida xudoni, ya'ni Zevsni nazarda tutayapti, chunki "Qodir" xudoning ismlaridan biri "Yakto – yagona, tengi yo'q" degani. Bu yerda ham xudoga nisbat berilayapti. Bu bilan Omon Matjon bir xillikdan qochib, o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, tarjimada har gal "Zevs" ni takrorlamaslik uchun yoki "Ey xudo, Tangri, Olloh, Haq, Rabbim, Yaratgan Egam, Parvardigor" demasdan, originaldagi "Jovis Thron, Zeus, der Gott" lar o'rnini bosa oladigan "Ey ismli qodir!", "Ul hukmi yakto" kabi poetik jihatdan chiroyli, obrazli sinonimik qatorni yaratgan. Bular she'rda kontekstual sinonim bo'lib, o'quvchida ehtirosli ruhni kuchaytiradi.

Darvoqe, “Men sen bilan birga edim, ey hoziq xudo!” (Muhammad Ali) misrasini mazmunan ham, poetik jihatdan ham ko’ngildagiday chiqqan deyish qiyin. To’g’ri, Muhammad Ali “Men sen bilan birga edim” ni originaldagi “Ich war... bei dir”, ruschadagi “Я БЫЛ ...с тобой ” jumllari asosida o’g’irgan. Buni so’zma-so’z tarjima deyish mumkin. Tarjima qilishdan maqsad tilda tilga so’zlar tizmasini ko’chirish emas, balki ularning mag’zida yashirinib yotgan sirli va sehrli ohangni ro’yobga chiqarishdir. Shu ma’noda, tarjimon bu yerda o’zining poetik kuchini ishga solib, shoirning ta’sirchan nochor holatini bera oladigan ko’tarinki bir badiiy ohangni chiqarib berishi kerak edi. Chunki, sirtidan qaraganda, shoir taqsim soatlarida go’yo xudo bilan birga, uning yonida bo’lib qolganday. Bu jonkret mexanik harakat-ku! Ammo mantiqan olib qaraganda, shoir xudo bilan birga, yonma-yon bo’lmagani tabiiy, faqat uning o’y-hayollari, dili xudo bilan band bo’lgan. She’rda shoir obrazidagi aynan shu nuqta, mana shu ruhiyat manzarasi :

“Sening birlan erdi dilim-matlabin!

Nigohi munavvar siymongga payvand”,–

Bo’lib, Omon Matjonda muvaffaqiyatli chiqqan.

Haqiqat qiyoslarda yuzaga chiqadi. Shillerdagi “Weh mir!...” ni L.Ginzburg: “O, горе мне! ...” deb, Omon Matjon: “Voh, men sho’r peshona!”, Muhammad Ali: “O, qismat!” deb tarjima qilgan. Originalda ham, ruscha matnda ham “qismat” (das Schicksal-судьба) haqida fikr ham, so’z ham yo’q. Nazarimizda, “qismat” kengroq tushuncha, qolaversa bu ijtimoiy holat. Bu shoirning tolei, taqdiri, yozmishi (yozg’uti). Lekin bu misrada shoirning shoirlik qismatini emas, Gyotedek “buyuk nemis” ni hayratlantirgan she’rning asosiy g’oyasini, ya’ni taqsimdan quruq qolgandagi shoirning zorlangan psixologik holatini poetik so’zlar bilan, emotsional bo’yoqlarda ifodalab berish kerak edi. Shu jihatdan qaraganda, so’z tanlashda rus tarjimoni L.Ginzburg “O, горе мне! ...”, Omon Matjon “Voh, men sho’r peshona!” deb o’girib, Shiller ovozining kuchli patetikasini tarjimada bera olishgan. Demak, bu misra originalga adevat tarjima qilingan. Umuman, Omon Matjon tarjimasidagi nozik ifodalar, ichki ritm, poetik ohanglar mutanosibliigi, ruhiyat manzaralarini berish usuli bizga nafaqat uning o’zbek poeziyasidagi badiiy mahoratini, balki shoir iqtidorining boshqa

bir qirrasini, ya'ni tarjimonlik mahoratini ham yaqqol ochib beradi. Bunday fikrga kelish uchun Shillerning Omon Matjon tarjimasidagi "Zamin taqsimoti" bilan bir qatorda "Qo'lqop" balladasi, "Kolumb", "Russo", "Nechuk shirin baxt ekan..." singari she'rlari tarjimasini o'qish kifoya.

"Hoziq" bilan "qodir" so'zlari mazmun jihatdan farq qiladi. "Hoziq", ta'kidlaganimizday, "eng tajribali, mahoratli" bo'lsa, "qodir" – "biror ishga kuchi, qudrati yetadigan;qudratli" degani. Bunday qaraganda Omon Matjon tarjimasidagi "qodir, sodiq, tojir, tijorat, avf, yakto, kom, va'z, matlab, magar, munda" singari kalimalar ham kelib chiqish jihatidan o'zbekcha emas, hatto "munda" dialektal so'z, ammo ular jonli xalq tilidan uzoqlashmagan, hozirgi zamonaviy nutqimizda faol ishlatiladi, ularni lug'atsiz tushunish mumkin, "hoziq, baytulahzan, tujjor" so'zlari kabi iste'moldan chiqmagan, eskirmagan, izoh ham talab qilmaydi yoki "kalapatra" dek o'zga tildagi dialektal so'z emas. Tarjimalarda adabiy til normalariga rioya qilish bilan birga jonli xalq tilidan yoki o'zga tillardan kirib kelib tilimizga singishib ketgan so'zlardan foydalanilsa, o'ylaymizki har qanday asar o'qimishli bo'ladi va o'z o'quvchisini tez topadi. Tilimizga turli tillardan so'zlar kirib kelayotgan bugungi globallashuv davrida o'zbek tilining sofligini saqlab qolishga ham harakat qilmog'imiz kerak.

1.2. "Gero va Leandr", "Qo'lqop" balladalar tarjimasining lingvoepik tahlili

Ma'lumki, har qanday ballada aniq bir fabula asosida yaratiladi. Shiller balladalar ham fabula asosiga qurilgan. Chunonchi, "Gero va Leandr" balladasi. "Gero va Leandr", "Qo'lqop" balladalar mazmun jihatdan "Asoratdagi Pegas" dan farq qiladi. Bu asarlarda inson uchun noyob tuyg'u – muhabbat motivi kuylangan.

1984-yilda Shiller tavalludining 225 yilligi munosabati bilan balladani rus tilidan "E. Vohidov o'zbekchalashtirdi. Balladaning ruscha matni Vilhelm Levik qalamiga mansub.

"Gero va Leandr" balladasi o'zbek adabiyotida "Asoratdagi Pegas" pamfletidan keyin Shiller adabiy merosidan tarjima qilingan kichik janrdagi navbatdagi asardir. Bu tarjima bilan yonma-yon Shillerning bir qancha lirik she'rlari va "Qo'lqop" balladasi Omon Matjon tarjimasida paydo bo'ldi.

“Gero va Leandr” tarjimasida shoirning tarjimonlik mahorati yanada sayqal topgani seziladi.

“Gero va Leandr” balladasi o’ziga xos yozilish tarixiga ega..”Gero va Leandr” afsonasi haqida she’r yozish ishtiyoqi Shillerdan ham avval Gyoteda bo’lgan ekan. Bunga Shillerning 1796-yil 23-may kuni Yenada turib, do’sti G.Kyornerga yozgan hati guvohlik beradi¹. Ballada bir qarashda ikki lirik qahramonning cheksiz ehtirolari, dardu hasratlaridan yig’ilgan intim tuyg’ulari ifodasiday tuyuladi. Aslida, bu lirik qahramonlarning zorlanishi yoki nolishi bo’lmay, bir-birlariga kuchli ishonch, insoniy sadoqat kabi juda katta ijtimoiy ma’no kasb etadi. Oshiqalar iztirobi individual kechinma sifatida emas, ijtimoiy shart-sharoitlar keltirib chiqargan fojia tarzida talqin qilinadi.

E’tibor qilaylik: Gero barcha ma’bud va ma’budalar (Kronion, Afrodit, Levkoteya) qarshisida qanchalik bosh egmasin, iltijo-la madad so’ramasin, Leandr ham Gero tutgan mash’ala tomon shunchalar intilmasin, daxshatli to’lqinlar uni o’z girdobiga tortadi va dengiz sahar chog’i o’lik tanni qirg’oqqa olib chiqadi. Gero bu savdodan tong qotadi, Leandrsiz yashay olmasligini anglaydi va:

„Umrim bitdi – qilmam o’kinch
Bildim ne baxt, nadir sevinch –
Ishqqa bo’ldim hamnafas.
O Venera¹endi o’zni
Topshiraman qo’lingga
Qurbon qilar bo’ldim endi
Yosh jonimni qo’lingga”,–

Deb o’zini jarga otib, jonini qurbon qiladi.

Grekk poeziyasi asosida yaratilgan bu ballada, albatta, har bir so’z zargarining bu mifologik syujetga munosabati va o’z ijodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, u yoki bu darajada o’zgartirilib talqin qilingan. She’rning ilk satrlaridanoq ko’z oldingizda uzoq-uzoqlarda, ufqlari yerni o’pgan lojuvard osmon ostida, mavjlari gupillab qirg’oqqa

¹ Шиллер. Собрание сочинений, в 8 ми томах, т.8. Письма. Гослит издат, Москва – Ленинград. 1950ю стрю 565.

¹ Venera – sevgi xudosi, u qushlarni sevgan.

urilayotgan moviy dengiz va qirg'oq yoqasidagi qoyada, hijron azobida sevgilisini kutib, so'lib sarg'aygan siymo namoyon bo'ladi.

Balladaga eramizdan oldingi V asr qadimgi grek poeziyasidagi Gero va Leandr muhabbati haqidagi mashhur mifologik syujet asos qilib olingan.

She'r tili inson ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi rang-barang badiiy bo'yoqlar bilan ifodalangan.

E.Vohidovning tarjimonlik mahorati faqat asar ruhini, mazmunini berishdagina emas, balki tarjimada qofiyalarni, vaznni, ohangni asliga monand qayta tiklashda ham ko'zga tashlanadi. Asar konsepsiyasi va kompozitsiyasi o'zbekchada mahorat bilan tiklangan. Balladaning badiiy va lisoniy xususiyatlari, tarjimada asl nusxadagiday jaranglaydi.

Tarjima ham ijodiy mehnat ekanligini chuqur his qilib, unga ma'suliyat bilan yondashgan mutarjim asarning butun jozibasini, tarovatini o'zbek o'quvchisiga yetkazish maqsadida tilning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Tosh bosadigan "yuki og'ir" so'z va iboralar topadi va o'zbekcha shillerona nazmni yaratadi. E'tibor qilaylik. Gero zor der:

“Ey, tangrim!

Bilding dillar orzusini.

Vafosiz ul o'zi, seni—

Vafosiz deb aytsa kim. Mehr yo'qdir odamlarda,

Otamda ham yo'q shafqat.

Biz bechora oshiqqlarga

Rahmdilsan sen faqat.

Gella! Go'zal ey ma'buda,

Uzat bizga qo'lingni.

Bergil mening yorimga ham

O'shal ravon yo'lingni.”

Afrodita, sen madad ber

Dengizdagi yorimga.

U bezavol kelsa agar

Atab qilay qurbonliklar
Sendek madadkorimga.
Barcha ma'bud, ma'budalar
Qarshisida egar bosh,
Bu ofatni qaytaring deb
Iltijo-la to'kar yosh.

Gero va Leandr voqeasiga, Geroning nolalariga shoirning ichki his-tuyg'ulari singib ketgan. Balladaning tili bir-biridan farq etadigan muallif nutqi va lirik qahramon Gero nutqidan iborat. Bu ikki nutq asarda yonma-yon boradi. O'n misralik har bir bandda Gero va Leandrning tasvir va tavsifi tiniq, ravshan va poetic mahorat bilan chizilgan. Muallif nutqi asar emotsionalligini ta'minlagan. Bizni asarning konsepsiyasi va kompozitsiyasidan ko'ra o'zbekchaga tarjimasining badiiy va lisoniy xususiyatlari, sifati ko'proq qiziqtirgani bois, asarni o'zbek tilida qanday jaranglaganini kuzatamiz. Bu ballada syujeti uch davr, uch adabiy muhit, uch millat vakili F.Shiller-V.Levik-E.Vohidovlarning yorqin iste'dodi orqali bizga yetib keldi. Jumladan:

Yana dengiz go'yo ko'zgu,
Yana unda tonggi yog'du
Zarrin qo'ng'iroqlari.
Tiniq mavjlar suyib, tarab,
Go'yo dafn qilmoqqa–
Sahar chog'i o'lik tanni
Olib chiqar qirg'oqqa.

Mutarjim Erkin Vohidov ballada jozibasini, tarovatini o'zbek o'quvchisiga yetkazish maqsadida tilning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Misol uchun asl nusxada arxaizm va sinonimlarni uchratish mumkin. Ya'ni:

Schöne Helle! , Holde Göttin! ,
Selige, dich fleh ich an,
Bring auch heute den Geliebten
Mir auf der Gewohnten Bahn.

V.Levik: Gella!Svetlaya boginya!
Ya prishla k tebe s molboy:
Toy je zibkoyu tropoy”.

E.Vohidov: Gella!Go’zal ey ma’buda
Uzat bizga qo’lingni.
Bergil mening yoringa ham
O’shal ravon yo’lingni.

Originaldagi Schöne Helle!, Holde Göttin!, yana bir joyda Holde Jungfrau! so’zlarida go’zallik va yoshlik ma’budasi Geraga nisbat berilmoqda.Shiller bitta ma’budani ifodalash uchun Schöne Helle!, Holde Göttin!,Holde Jungfrau, Jungfrau! Singari sinonimlardan foydalangan.

Original tili juda boy, rang-barang stilistik bo’yoqlarda chizilgan.Kontekst uchun harakterli hollardan biri mufologiyaga oid so’z va terminlar jonlantirish, o’xshatishqiyoslash, giperbola, epiteta metafora, takror, anaphora, epifera, realiya kabi shoir uslubini aks ettiradigan komponentlarga serobligidir.Jonlantirish (Personafizierung) orqali obrazlilik kashf etilgan:Quyib berar yomg’ir balo // Yoyib qaro qanotin.Yomg’irning ham qanoti bo’ladimi?Bu bilan shoir butun osmonu falakni qop-qora bulut qoplagan demoqchi yoki “Oppoq ko’ylak kiygan oy // yulduzlarning jamoli”, yana “Tiniq mavjlar suyib, tarab”.... Bu yerda shoir o’lik tanni dengiz mavjlari tong bilan qirg’oqqa olib chiqqanini bildirayapti.

- 1.O’xshatishlar (Vergleichungen):Ey Pont! Bag’ring girdob ekan;
Sokinliging niqob ekan;Ilondek tinch yotgansan ;...dengiz go’yo ko’zgu;
Qutirishi devga xos (dengizdagi bo’ron).
- 2.Giperbola (Hyperbal):To’lqin kelar bo’lib tog’-tog’.
- 3.Arxaizmlar (Archaismen):Gellespont, Dardanel va hokazo.

Originaldagi kuchli fojiviy ohang tarjimaga ham ko’chgan.Masalan, “oshuftayu parishon, g’amgin, yolg’iz, ilohiy tun, oydin tun, hijron-iztirob, yalinadi cho’kkancha tiz, ofat shamoli, ofat balo, ilohiy tun, olovli arg’umoq, minib tilla qo’yini, (Aid minib tilla qo’yini)” va hokazolar.

Balladada arabcha-forscha, tojikcha soʻzlarni qoʻllashga moyinlik seziladi. Masalan, gardish, tiyra, dahridun, gusha, jovidon va boshqalar. Bu soʻzlar tushunarli boʻlganligi va tilimizda faol ishlatilganligi bois tarjima qimmatini pasaytirmaydi. Aksincha, tarjimaga rang-baranglik baxsh etgan.

“Qoʻlqop” balladasi oʻzida ijtimoiy mazmun kasb etgan. U oʻrta asrlar tarix voqeyligi aks etganligi, chuqur falsafiy mushohadaga boyligi bilan diqqatni tortadi. “Qoʻlqop” balladasi ilk bor 1798-yili “Muzenalmanax” jurnalida chop etilgan. Asar kunlarning birida hayvonlar oʻyini tomoshasida tepadagi kushkda, yovvoyi hayvonlar jangini kutib oʻtirgan qirol va taxt girdida chaman rangini eslatib, gulchambarga oʻxshatib uni oʻrab olgan bir guruh honimlar foni bilan boshlanadi. Qirol ishorati bilan oʻrtaga otilib chiqqan arslon, yoʻlbars va qoplonlarning holatlari badiiy tasvirlanadi. Shiller “Löwenzwinger”dagi ichikkan qoplon, boshi yungdor arslon, tajang yoʻlbars kabi bahaybat hayvonlarga xos harakatlarni rang-barang badiiy boʻyoqlarda yetkazib bera olgan. Misol uchun bular originaldagi “bedächtigem Schritt // Ein Löwe tritt”, “Und sieht sich stumm // Rings um”, “mit langem Gaehnen ...schuetteltdie Maehnen, ...streckt die Glieder ...legt sich nieder, ...rennt mit wildem Sprunge ein Tiger hervor, ...bruellt er laut”.

Omon Matjon tarjimada ushbu hayvonlarga xos boʻlgan harakatlarni ifodalaydigan soʻz va iboralar topa olgan. Misol uchun arslonni harakterlash uchun u “boshi yungdor bahaybat arslon, esnab, tars-tur yolini qoqib choʻzilarkan, yerga erinchoq”, yoʻlbarsni tasvirlaganda “achchiq oʻkirib goh oʻq, goh yoy shakliga kirib”, qoplon uchun esa “zugʻm solib yoʻlbars-u sherga, tikrayadi tishlar va tuklar, jimib qolar asov mushuklar” singari poetik tasviriy ifodalar ishlatgan. “Qoʻlqop” balladasini rus tiliga V. Jukovskiy tarjima qilgan. Omon Matjon tarjimada ruscha variantlardan foydalangan boʻlsa-da, originalga juda yaqin kelgan.

Bu, ayniqsa, “Qoʻlqop” balladasida qoʻrqinchli hayvonlarni sifatlash uchun betakror usullar qoʻllaganida epitet va atributlarni oʻrinli ishlatishlarida yoki “Zamin taqsimotida” osmon hukmdori Zevs poyiga bosh qoʻyib oʻz ulushini odob bilan zorlanib soʻragan shoir ruhiyati tasvirida namoyon boʻlgan. “Teilung der Erde” sheʼrining 25 yil davomida 2 ta tarjimai paydo boʻldi. “Zamin taqsimoti” varianti

“Yerning taqsimlanishi” ga qaraganda originalga mos va badiiy jihatdan ustun ekanligini aniqladik.

Omon Matjonning Fridrix Shillerdan qilgan “Qo’lqop” balladasi, “Zamin taqsimoti”, “Kolumb”, “Russo”, “Nechuk shirin baxt ekan...” she’rlari tarjimasi bilan juda ishonarli va muvaffaqiyatli ravishda o’z badiiy-estetik maqsadiga erishgan va bu she’rlar o’zbek tarjimashunosligida badiiy jihatdan baquvvat tarjimalar bo’lib qoldi.

II bob. Shiller va o’zbek adabiyoti

2.1.Shiller ijodining o’zbek yozuvchilariga ta’siri

Bugungi kunda jahon xalqlari bilan iqtisodiy-siyosiy, madaniy-adabiy aloqalarni yanada mustahkamlashda bir xalq adabiyotidagi an’ana va motivlarning asta-sekin boshqa xalqlar adabiyotiga kirib borishida badiiy tarjimaning roli katta.Mazkur masala yuzaasidan N.I.Konrad yozadi: “Begona adabiyot bilan originalda bevosita tanishish bu – bir adabiyotning boshqa bir adabiyot olamiga kirib borishi shakllaridan biridir”.Hukumatimiz adabiyot, san’at va madaniyat ravnaqi uchun doim g’amxo’rlik qilib kelmoqda.Ijodkorlarimizni g’oyaviy-badiiy jihatdan baquvvat asarlar yaratishga ruhlantirmoqda.Jahon adabiyoti, jumladan, o’zbek milliy adabiyotining o’zaro ta’siri, ularning bir-birlarini boyitish masalasi va shu ijodiy jarayonni o’rganish bugungi kunda adabiyotshunoslik fani oldida turgan dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda.O’zbek yozuvchi va shoirlari uchun xalq og’zaki ijodi o’zbek, rus klassik adabiyoti bilan birgalikda g’arb adabiyoti ham ijodiy ta’sirlanish manbalaridan biri hisoblanadi.Shu jumladan, Shiller va Shekspir ijodining ham o’zbek adiblari badiiy ijodi taraqqiyotiga samarali ta’sir ko’rsatgani va ko’rsatayotganini alohida ta’kidlamoq darkok.Shiller va Shekspir adabiy merosining ilhombaxsh ta’siri o’zbek adabiyotining barcha janrlarida ko’rish mumkin.O’zbek adabiy muhitida bu g’arb adiblari ijodidan tarjimalar qilish, tajribasidan foydalanish, uning an’analarini o’zlashtirish va davom qildirishga harakat o’tgan asrning 30-40 yillaridayoq boshlangan edi.Bu ijodiy ta’sir belgilarini U.Nosir, G’G’alum, H.Olimjon, Oybek, K.Yashin, I.Sulton, A.Muxtor, Mirmuxsin, T.To’la, E.Vohidov, O.Matjon, Muhammad Ali, Abdulla Sher kabi yozuvchi va shoirlarimiz ijodida, shuningdek, keyingi avlod shoirlari U.Azim, X.Davron, U.Abduazimova ijodida ko’rish mumkin.

T.To'laning "Nodirabegim" tragediyasining g'oyasi Shillerning "Mariya Styuart" fojiasini tarjima qilish jarayonida, Mirmuxsinning "Luiza fojiasi" dostoni Shillerning "Makr va muhabbat" asaridan ta'sirlanish natijasida paydo bo'lgan asardir.

Shiller g'oyalari, an'analari, uning xorijiy tillarga tarjimalari orqali milliy adabiyotlar xazinasidan o'rin egallab o'zbek dramaturgiyasi rivojiga ham sezilarli hissa qo'shib kelmoqda.

XVIII asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa klassik adabiyotida muhim o'rin tutgan Germaniyadagi "bo'ron va hujum" adabiy harakatining qahramonlari Luiza, musiqachi Miller, frau Miller kabi obrazlar, ularning ijtimoiy-siyosiy qarashlari bilan 1930-yillarda yaratilgan obrazlar – Gulnor, Yormat va xotining qarashlarida ularning ho'jayinga, prezidentga munosabatlari va farzandlar taqdirining ko'rsatilishida bir qancha umumiylik mavjud. Masalan, Luizaning otasi Miller – shahar musiqachisidir. Uning sohibjamol qizi Luiza bilan prezidentning o'g'li Fredinand oralaridagi muhabbat sinfiy tafovut tufayli fojia bilan tugaydi. Xuddi shu ruh o'zbek xalqining XX asr boshlaridagi hayoti tasvirlangan "Qutlug' qon" romanida ham aks etgan. "Makr va muhabbat"da "askar sotish" sahnasi, "Qutlug' qon"da esa "mardikor olish" kartinasi bor. A. Bushman tipologik yaqinlikni "Tipologik o'xshashliklar adabiy taraqqiyoti umumiy qonuniyatlarining ishonchli ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Harakatlarning umumiy o'xshashligi yuksak natijadir"¹ deb ta'riflagan. Oybek Shiller ijodiga yuksak baho berib "Mashhur lirik shoir H. Haynening siyosiy, inqilobiy lirik she'rlari ozmi?! Nemislarning buyuk shoirlari Gyote va Shiller falsafiy-ijtimoiy muammolarni lirik asarlarda kuylamaydilar mi?!"² deb yozgan edi.

H. Olimjonning "Ofeliyaning o'limi", Mirmuhsinning "Luiza fojiasi" asarlari G'arb adabiyotidagi asarlar syujetidan foydalanib, mutlaqo boshqa janrda yaratilgan yangi asarlardir.

Ma'lumki ayollar taqdiri bilan bog'liq "makr" haqida dunyo adabiyotida ko'p asarlar bitilgan. Bu haqida afsona, rivoyat, ertaklar to'qilgan. Bulardan yozuvchi va shoirlar unumli foydalanganlar. Buni R. Uzoqovanning "Makr va muhabbat" dostoni misolida

¹ Bushman A., Наука о литературе. Изд-во Современник. М. 1980. Стр. 164

² Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 14 jild. Fan. Toshkent. 1979. 80 bet.

ko'rish mumkin. Shunday syujetli asarlardan biri 30-yillar oxirlarida yaratilgan H.Olimjonning "Semurg" poemasidir. "Semurg" da "makr" ifodasining. Muallif makr va muhabbatning kuchini ifodalashda folklor an'analaridan unumli foydalangan. Masalan:

Kun botarda bir yovuz
Dev bor emish, yalmog'iz.
Shuni jangda o'ldirsang.
Hayotini so'ldirsang,
Shu kuni to'y boshlarmiz,
G'am-g'ussani tashlarmiz.

Deydi, xon qizi Parizod cho'pon yigitga. H.Olimjon asarda makr motivi yordamida muhabbatda sinfiylik masalasini juda tiniq talqin qilgan.

K.Yashinning 30-40-yillarda yaratgan "Yondiramiz", "O'lim bosqinchilarga", "Gulsara" kabi dramalarida ham Shiller an'analarining izlarini shillerona ko'tarinki ruh Shiller uslubiga xos romantik xususiyatlarni sezish mumkin. Shiller an'analarining samarali izlari taniqli adabiyotshunos olim, dramaturg, tarjimon I.Sulton ijodida ham ko'zga tashlanadi. Bu belgilar uning "Noma'lum kishi", "Imon", "Istehkom", "Burgutning parvozi" dramalarida yaqqol seziladi.

O'zbek poeziyasida "erk qilichin qayragan, yuragida Vatan degan muqaddas sevgi doim uyg'oq" Nomoz o'g'ri-Nomoz botir obrazini yaratish an'anaviy tus olgan. Bu obraz X.Davron ijodida muhim o'rin tutadi. Uning tarixiy-biografik harakterdagi "Nomoz haqida qo'shiq", "Botir Nomoz o'limi" kabi asarlarda "o'z Vatanida pisib yurgan "Nomoz boshchiligidagi siyosiy tus olib ketgan xalq harakatining mohiyatini ochishga, Nomozdagi kurashchanlik va adolatparvarlik ruhini ifodalashga harakat qilingan.

"Parvoz"dagi mifologik syujet G'irotni obrazi bizga Shillerning moviy samoga talpingan tutqundagi "Pegas"ni eslatishi tabii Shiller ijodining o'zbek adabiyotiga ta'sirini faqat dramaturgiyada emas, balki poeziyada ham ko'rish mumkin. Muhammad

Alining “Parvoz”¹ she’ri tarjimadan ta’sirlanish, estetik natijasida “Asoratdagi Pegas” ramziy-mifologik asari ta’sirida dunyoga kelgan.

.”Parvoz”dagi G’irot obrazi ham shoirning orzu-umidlari, ilhomini o’zida aks ettirgan. Ya’ni:

Shoir uchun sen-Ilhom,
Ki, ufqqa uchmishdir;
Axir ul ham o’z bag’rin
Osmonlarga ochmishdir.
Uning-da sen singari
Qanotlari bor, mag’rur!

Muhammad Ali ham Shiller ifodalaganidek shoir ilhomini uchqur qanotli ot-duldulga qiyos qilar ekan, shu bilan birga, “Go’ro’g’li” dostonidagi Go’ro’g’lining G’irotiga ham nisbat beradi.

Shoir she’rda G’irot, Go’ro’g’li, Shohqalandar, Turkiston, Avaz kabi realiyalardan unumli foydalanish bilan birga, shular yordamida voqealarni ma’lum darajada reallashtirgan.”Parvoz”dagi G’irot shu tomonlari bilan Shillerning majoziy-allegorik obrazi Pegasdan anchagina farq qiladi. Farqi shundaki, “Parvoz”da voqealar real borliq asosida ifodalangan.”Asoratdagi Pegas”ning qahramonlari majoziy obrazlar bo’lib, ular asarda xalq orzu-umidlarining ro’yobi sifatida namoyon bo’ladi. Shillerdagi ot obrazining yana bir muhim xususiyati shundaki, shoir uni nur, quyosh xudosi Feb bilan bog’laydi. Bu bilan Shiller Pegas obrazini shu darajaga ko’tarib, uni ilohiylashtiradi. Misol,

Umsonst der Nachbar schreitet mit Bedacht
Und Phoebus stolzes Ross, muss sich dem Stier bequemem.

Ruschada: Сосед его бредет, рога склонив,
И гнется под ярмом скакун могучий Фебаю

O’zbekchada: Novvos-chi? Sudralar yetgancha boshin,
Egilar darddan Feb arg’umog’i ham.

¹ Muhamad Ali. Sevsan sevilsam. Toshkent. G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1983. 116 bet.

Uchar ot Pegasni asar qahramoni Hans yerda yurgizihga majbur qilsa, G'irotni ko'klarda "parvoz uchun yaralgan". G'irotni obrazi real hayotdagi haqiqiy ot bo'lsa-da unda mifologik xususiyatlar yo'q emas. Ulardan biri G'irotni yulduzlarni ko'zlashidir.

Misol uchun:

Manglayiga yulduzlar
Kelib qo'nar doimo.
Gohi Yetti Qaroqchi,
Gohi Cho'lpon, goh Zuhro.
Sayron bulutlar esa,
Intiq boqib turarlar.
Ot ko'zida poyonsiz
Kengliklarni ko'rarlar.

Ot obrazi sekin-asta o'zining an'anaviy ma'nosidan o'zbek poeziyasida shoir ilhomi obrazi darajasiga ko'tarilgan. Shoir ilhomining bu xil yangi tushunchasi 70-80-yillar poeziyasida ko'proq uchraydi. Shiller ijodidagi shoir ilhomi-Pegas obraziga o'xshash obrazni A.Sher ijodida, U.Azimovning "She'riyat va U.Abdumovning "Iqbol sari" she'rida ham uchratamiz. G'arb va Sharq poeziyalarida uchrayotgan obrazlardagi yaqinlik, ijodkorlarning G'arb poeziyasining sir-asrorlaridan tinimsiz o'qib, o'rganayotganligidan, o'sha ta'sirda ma'naviy dunyolarining bir-birlariga yaqinlashayotganligidan dalolat beradi. A.Sher "Baxt" she'rida shunday deydi:

Ishq qo'ydimu bir diyorga,
Takrorladim bir otni,
Kulib boqdim ot bozorga:
Men sotmadim G'irotni.
Shul sababki, shan tabassum
Tark etmagay yuzimni.

She'rida baxt tushunchasi ijod erkinligi bilan uyg'unlashib ketgan. A.Sher ijodidagi "ot bozor, G'irotni" majoziy obrazlari "Asoratdagi Pegas" ramziy – mifologik asarini esga tushiradi.

Jahon she'riyatida "ot" obrazining shoir Ilhomiga nisbat berib qo'llanilishi, 1970-80 yillar o'zbek she'riyatida an'anaviy tus olganini sezish qiyin emas. Ilhom arg'umog'i – tulpor Usmon Azim ijodida o'ziga xos jaranglaydi. Chunonchi:

O'jar tulpor, tong tulpor,
Yo'llari osmon tulpor,
Parvozingga kuch bo'lsin,
Berayinmi jon, tulpor?!

U. Abduazimova ham "ot" obrazi orqali shoir ilhomiga ishora qilib yozar ekan, "mayli, kimdir havas bilan boqsin, kimdir xasad bilan nola qilsin", biroq "sen ularga parvo qilma otim, hey, suvoringga jafo qilma, otim, hey", deydi.

U. Azimov va U. Abduazimovlar ijodidagi uchqur qanotli ot obrazi ham real hayotdagi haqiqiy ot bo'lib, uni ideal darajaga ko'tarish uchun inga qanotli otning xususiyati singdirilgan va shu orqali bu obrazga majoziy tus berilgan.

O. Matjon "Ilhom parisiga" she'rida, shoir ilhomi obrazi haqidagi konkret fikrlarini real ifodalash bilan birga, she'rda takrordan qochib, G'arb adabiyoti namunalaridan ijodiy ta'sirlanib, bu obrazning boshqa adabiyotlardagi atamasi Pegasdan sinonim sifatida foydalanadi va bu bilan she'rga badiiy rang-baranglik baxsh etadi. Masalan:

Emish, yunonlarda, Olimp tog'ida
She'rni yoqlagandir Arshning egasi,
Shundan, oliy masnad yo'riqlaridan
Shoir voqif bo'lgan, bo'lgan Pegasi.

Shoirning ilhom obrazi haqidagi fikrlari she'rda dinamik ravishda rivojlanib boradi:

Ilhom, bu – vatanni sevmoq mastona,
Ha, suymoq! Sevishning bo'lmas shartlari!
Menga O'zbekiston – Ilhom parisi,
Uning quvonchlari, uning dardlari!–

deb yakunlaydi.

Xulosa

Ilmiy tadqiqot ishining asosiy maqsadini chuqur va batafsil hal etish quyidagi vazifalarni qamrab oldi:

-Shiller ijodining O'zbekistonga tarqalish tarixi va o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga kirib borishining ijtimoiy-tarixiy sabablarini asoslash.

-O'zbekistonda Shiller adabiy merosining tadqiq'ini sinchiklab o'rganish asosida o'zbek shillersunosligining bosqich va pog'onalarini belgilash.

-Shiller asarlari tarjimasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarining umumiy saviyasini baholash va lingvopoetik tahlil orqali Shillerning o'zbek adabiyotiga ta'sirida badiiy tarjimaning rolini aniqlash. Tarjima va adabiy ta'sir munosabatlarining ayrim muhim qirralarini ochib berish.

-O'zbek milliy dramaturgiyasi taraqqiyotida Shiller dramaturgiyasi prinsiplarining o'rni va rolini yoritish.

-Shiller dramaturgiyasining o'zbek adabiyotining boshqa tur va janrlariga ta'sirini va bu ta'sirning konkret ko'rinishlarini ko'rsatib berish.

-O'zbek adabiyotida Shiller poeziyasi an'analarining izlarini aniqlash.

-O'zbek adabiyotiga Shiller ijodi ta'sirining shakl va an'analarining kirib kelish yo'llarini belgilash.

-O'zbek-nemis adabiy-madaniy aloqalari taraqqiyoti tarixida Shiller adabiy merosining o'rni va rolini ko'rsatib berish.

Tadqiqotda Shiller asarlarini o'rganishda asl nusxa va o'zbekcha nusxalari bilan birga ruscha tarjimalariga suyanish, nemis dramaturgi asarlari bilan o'zbek adabiyotining Oybek, K.Yashin, I.Sulton, R.Uzoqova, T.To'la, Mirmuhsin kabi vakillarining turli janrda yaratgan asarlari o'rtasidagi ko'p jihatli o'xshashlik va mushtaraklikni kuzatish, ularni komparativistik shaklda, ya'ni qiyosiy metod asosida solishtirish hamda ularga turli nuqtai nazardan yondashish o'z samarasini berdi;

Ishning asosiy mazmuni xorijiy va respublikamiz ilmiy-nazariy konferensiyalarida qilingan ma'ruzalarda, "Fridrix Shiller adabiy merosi O'zbekistonda" risolasi, "Makr va muhabbat" tarjimalar to'plamidagi so'zboshi, izohlarda hamda markaziy

matbuotlarda e'lon qilingan ilmiy-ommaviy va ilmiy-nazariy maqolalarda o'z aksini topadi.

Xullas, bu asarlarning o'zbek adabiyot olamiga kirib kelib, o'zbek muhitiga singishib ketishi madaniy hayotimizda katta voqea bo'ldi. O'zbek aktyorlarining G'arbiy Yevropa xalqlari madaniyatini egallashlarida Shekspir asarlari tarjimasini bilan birgalikda Shiller spektakllari ham mahorat maktabi vazifasini o'tadi.

1962-yilning mart oyida O'zbekiston Madaniyat Vazirligining Badiiy tarjima ishlarining ahvoli va tarjima asarlari savdosini yaxshi yo'lga qo'yish to'g'risida va hukumatimiz tomonidan 1965-yilning 15-dekabrida "O'zbekistonda badiiy tarjima yanada yaxshilash tadbirlari haqida" qabul qilgan qarorlari tarjima ishining tez sur'atlarda rivojlanishiga turtki bo'ldi. 1970-yil 23-26-iyun kunlari Moskvada Butunittifoq tarjimashunoslar kengashi o'tkazildi. Mustaqillik yillarida ham tarjima ishlariga e'tibor kuchaysa kuchaydiki, ammo susaymadi. O'zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlariga nazar solsak, jahon klassikasi bilan birga, "Makr va muhabbat" (K.Yashin va M.Hakim. 1939), "Vilgelm Tell" (G'.G'ulom.1955), "Qaroqchilar" (A.Muxtor. 1955), "Mariya Styuart" (T.To'la.1970), kabi dramatik va tragik asarlari "Asoratdagi Pegas" pamfleti (M.Ali tarjimasini. 1966), "Russo", "Zamin taqsimoti", "Nechuk shirin baxt ekan..." va mashhur "Qo'lqop" (O.Matjon.1984), "Gero va Leandr" (E.Vohidov.1984), "Yerning taqsimlanishi" (Muhammad Ali.2009) kabi she'r va balladalar tarjimasining matbuotda bosilib chiqishi, nemis shoiri ijodining xalqimiz orasida nechog'lik mehr-e'tibor qozonib borayotganidan dalolatdir.

Xullas, chet el adabiyoti namunalaridan o'zbek tiliga o'tkazish ishlari bilan shug'ullanayotgan mutarjimlar xorijiy yozuvchining rus tilidagi matniga tayanib qolmasdan, asl nusxaga yo'l topishga intilishlari lozim. Shu bilan birga, har bir tarjimon:

- dramatik va poetik tarjima prinsiplariga qat'iy rioya qilishi va juda boy leksik bazaga ega bo'lish bilan birga, har bir so'zning salmog'ini aniq bilishi shart;
- o'zga xalq poetikasidagi ohangni, ritmni tuyishi talab qilinadi;
- ikki xalq tilidagi hazil-mutoyiba, so'z o'yinlari, qochiriqlarni va o'ziga xos milliy tushunchalarni bilishi shart;

- janr (drama va poeziyadagi) xususiyatlarini bilishi va ikki davr orasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlardan xabardor bo'lmog'I kerak;

- tarjimondan voqealar aks etgan va asar yozilgan davrdagi adabiy, madaniy, tarixiy muhitni chuqur bilishi talab qilinadi;

- ikki tildagi grammatik kategoriyalarning farqli tomonlarini bilishi shart.

“Qo'lqop” va “Zamin taqsimoti” asarlari tarjimasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini kuzatishlar va uni lingvopoetik tahlil jarayonida quyidagi xulosalarga keldik. Birinchidan, bu asarlarni originalga adekvat va badiiy jihatdan baquvvat deyishimizga asos bor. Nima uchun? “Qo'lqop” tarjimasida Omon Matjon ruscha variantlardan foydalangan bo'lsa-da, ichki bir intuatsiya bilan originalga juda yaqinlashgan. Tarjima o'quvchi shuurini chulg'ab oladigan rang-barang badiiy bo'yoqlarga boy. Bu ayniqsa, “Qo'lqop” balladasida qo'rqinchli hayvonlarni sifatlash uchun betakror usullar qo'llaganida, epitet va atributlarni o'rinli ishlatishlarida yoki “Zamin taqsimoti” da osmon hukmdori Zevs poyiga bosh qo'yib “itoat va odob bilan” (Gyote” o'z ulushini zorlanib so'ragan shoir ruhiyati tasvirida namoyon bo'lgan. Ikkinchidan, “Teilung der Erde” she'rining 25 yil davomida ikkita tarjimasi paydo bo'ldi. Lingvopoetik tahlil jarayonida ilk tarjima “Zamin taqsimoti” varianti “Yerning taqsimlanishi”ga qaraganda originalga mos va badiiy-estetik jihatdan ustun ekanligi aniqlandi.

Xullas, Omon Matjon shu belgilarni o'ziga singdirib olgani va bunga amal qilgani bois, Fridrix Shillerdan qilgan “Qo'lqop” balladasi, “Zamin taqsimoti”, “Kolumb, Russo, Nechuk shirin baxt ekan...” she'rlari tarjimasi bilan juda ishonarli va muvaffaqiyatli ravishda o'z badiiy-estetik maqsadiga erishgan va bu she'rlar o'zbek tarjimashunosligida originalga adekvat va badiiy jihatdan baquvvat tarjimalar bo'lib qoldi.

I. Sultonning badiiy ijodi o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shildi. Ijodkorning bunday muvaffaqiyatga erishuvida rus va G'arbiy Yevropa dramaturgiyasi namoyondalari qatorida Shiler ijodining ham samarali ta'siri borligi shubhasiz.

Shunday qilib, bevosita xalq og'zaki ijodidan kelayotgan bu an'anaviy motivga xalq taqdiri bilan mustahkam bog'langan dolzarb va qiziqarli "olihimmat o'g'rilar" mavzuiga zamonaviy adabiyot, ayniqsa, hamisha hozirjavob janr she'riyat befarq qololmas edi. Shu bois, bir tomondan xalq og'zaki ijodi an'alariga, mavzuining yoritilishi tajribasiga suyangan holda, 80-yillarga kelib, Muhammad Alining "Boqiy dunyo" (1981) she'riy romani yaratildi.

Shunday qilib, biz badiiy ob'ektning ijodkorlarga turli yo'llar bilan ta'sir o'tkazganini ko'rib chiqdik. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, Shiller adabiy merosi o'zbek yozuvchi va shoirlariga, ma'lum bir vaqtda ta'sir qilmasdan, balki har xil davrda, turli yoshdagi ijodkorlarga turli xil ko'rinishda ilhom baxsh etgan ekan. Va bu ijodiy ta'sir natijasida o'zbek adabiyotida turli janrda (proza, poeziya, dramaturgiya) talaygina asarlar paydo bo'lgan. Ijodiy ta'sir natijasida o'zbek adiblaridagi uslub rang-barangligini alohida qayd qilish o'rinlidir. Misol uchun, K. Yashinda Shiller xos romantik xususiyatlar ko'zga tashlansa, I. Sultonda romantik xususiyatlar bilan birgalikda shilleroni ochiq tendensiya ustuvorlik qilgan. T. To'la ijodida konflikt – kolliziya, harakter yartish priyomlarini ko'rish mumkin. R. Uzoqovada mavzu va motiv, Mirmuhsinda syujet va obraz, Muhammad Alida obraz va motiv va hokazolar.

Xullas, shoir ilhomi obrazi turli millatlar adabiyotida turlicha ko'rinishdadir. Misol uchun, Qadimiy Rimda Ilhom parisi *Kamena* deb yuritilgan bo'lsa, turkiy xalqlar adabiyotlarida, jumladan o'zbek poeziyasida *Ilhom parisi* deb ataladi. Shoir ilhomining atamasi ruslarda *Muza* bo'lsa (G'arbiy Yevropa xalqlarining ko'plarida Muza deyiladi. Masalan, nemis she'riyatida ham "*die Muse*"), gruzin mifologiyasi va poeziyasida shoir ilhomini belgilovchi afsonaviy uchqur ot – *Merani*, grek mifologiyasida yuqorida ta'kidlanganidek, uchqur qanotli ot *Pegasdir*. *Pegas* G'arbiy Yevropa she'riyatida ramz darajasiga ko'tarilgan.

Uchqur qanotli ot obrazining shoir ilhomining atamasi sifatida o'zbek adabiyotiga kirib kelishi va yangi obraz sifatida (ayniqsa, bu belgilar rus va G'arbiy Yevropa adabiyoti namunalaridan ruhanayotgan yoshlar ijodida ko'p uchraydi) keng tarqalishi bugungi kun o'zbek she'riyatining taraqqiyotini belgilaydi. Shiller adabiy merosining o'zbek xalqi ma'naviy olamiga yo'l topishi, o'zbek milliy madaniyatiga ijodiy ta'siri,

eng avvalo, yangi davr talabi bilan bog'liqdir. Bunda shubhasiz, asosiy rolni estetik qimmat, yuksak romantik pafosi, kurashchan, ko'tarinki ruhi bilan jahon san'ati va adabiyotida mashhurlik kasb etgan Shiller teatri va dramaturgiyasi o'ynagan. O'zbek milliy teatri va dramaturgiyasi o'zining shakllanish bosqichida Shiller dramalariga murojaat qilishining zamirida ham yosh milliy teatr oldida turgan muhim vazifalari bilan Shiller teatri va dramaturgiyasining g'oyaviy-estetik prinsiplari o'rtasidagi uyg'unlik yotadi. Bir tomondan buyuk dramaturg qalamining betakror qudrati, o'ziga xos mahorati, ikkinchi tomondan, 20-yillar o'zbek teatri tomoshabinlarida Shillerning romantik sahna ideallariga bo'lgan cheksiz ma'naviy ehtiyoji o'zbek sahnasida Shiller dramalarining muvaffaqiyatini va uzoq muddatli shuhratini ta'minlagan.

Shiller drama va tragediyalaridagi obrazlar fojiasi va ayrim umumbashariy motivlar ta'sirida o'zbek she'riyatida turli janrda qator asarlar yaratildi. Bu ta'sir belgilarini tashqi va ichki ko'rinishga ajratish mumkin.

1. Tashqi ko'rinishlari:

a). Tarjima qilish jarayonida ta'sirlanish. ("Asoratdagi Pegas" tarjimasidan ta'sirlanib, Muhammad Ali "Parvoz" she'rini, T.To'la "Mariya Styuart"ni o'g'irgach, "Nodirabegim" ("Quvvai qahqaha") fojiasini yozgan.

b) O'tmish yoki zamondosh so'z san'atkorlarining asarlarini o'qib, estetik zavqlanish natijasida ta'sirlanish. (R.Uzoqovanning "Makr va Muhabbat" dostoni; I.Sultonning "Noma'lum kishi" dramasi);

d) Sahnada tomosha qilib ta'sirlanish (Mirmuhsin "Makr va Muhabbat" ni tomosha qilib, "Luiza fojiasi"ni yozgan, H.Olimjon Shekspirning "Gamlet" va "Otello" tragediyalarini ko'rgach, "Ofeliyaning o'limi" ni yaratdi).

Bu belgilar badiiy ta'sirning shakliy yohud tashqi ko'rinishlari bo'lsa, u mazmuniga ko'ra ichki ko'rinishga ham ega.

2. Ichki ko'rinishlari:

a) Obrazdan ta'sirlanish (Omon Matjon "Ilhom parisiga" (Pegas);

b) G'oyadan ta'sirlanish (T.To'laning "Nodirabegim" fojiasi, Izzat Sultonning "Noma'lum kishi" dramasi) "oliyhimmat o'g'ri" Nomoz hayot yo'li ideyasining tug'ilishi.

- O'zbek adabiyotida Shiller an'analarining ildiz otishida badiiy tarjima muhim va samarali rol o'ynagan. U *bir tomondan* Shiller adabiy merosini o'rganishning turli bosqich va pog'onalarida o'zbek shillershunosliligining shakllanishi va taraqqiyotiga jiddiy turtki bergan bo'lsa, *ikkinchi tomondan*, Shiller poetik mahoratining olmos qirralarini, uning g'oya hamda obrazlar olamining sir-asrorlarini o'zbek o'quvchi va ijodkorlariga yetkazib berishda asosiy vositachi sifatida xizmat qilgan. O'zbek she'riyati taraqqiyotining turli bosqichlarida Shiller poeziyasi an'analarining izlarini ba'zan umumiy, ba'zan konkret ko'rinishlarda kuzatish mumkin:

a) XX asrning 20-30-yillar poeziyasida ko'tarinki romantik kayfiyatning paydo bo'lishida, inqilobiy romantika an'anasining kuchayishida G'arb romantizmining *korifeylari* bilan bir qatorda Shiller poeziyasining ham ta'siri kuchli bo'lgan. Shu ijodiy ta'sir zahirida o'zbek she'riyati vakillarining G'arb poeziyasiga, jumladan, Shiller poeziyasiga bo'lgan katta qiziqishi yotadi.

b) 60-yillardan keyin Shiller poeziyasidan qilingan tarjimalar, *bir tomondan*, o'zbek badiiy tarjimachiligini sara namunalar bilan boyitgan bo'lsa, *boshqa tomondan*, Shiller poeziyasiga qiziqishning kuchayishi natijasida, hozirgi o'zbek she'riyatida qator asarlar paydo bo'lgan. Bu o'rinda faqat so'nggi yillar o'zbek she'riyatining ayrim namunalarida an'anaviy ramziy Ilhom obrazining g'oyaviy-badiiy talqinida "Asoratdagi Pegas" pamfletining ijodiy ta'sirini eslatish kifoya. Nemis dramaturgi va shoiri Fridrix Shillerga yillar davomida muntazam murojaat qilinmoqda, dramalari qayta-qayta sahnalashtirilmoqda, she'rlari qayta-qayta tarjima qilinmoqda. Bu shoir va dramaturg ijodining umrboqiylikidan va naqadar xalqchilligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" .T. 2008.
2. Karimov Sh., Dillardan-dillarga (O'zbek-nemis adabiy aloqalaridan lavhalar).Toshkent:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1980.156 bet.
3. Nasriddinov B.,Mamatov G., Shiller va o'zbek teatri.Toshkent oqshomi.1968.4 oktabr
4. Saidov S., F.Shiller tragediyasi "Makr va muhabbat"ning ilk tarjimasini haqida (tezis).Adabiy aloqalar, adabiy ta'sir va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari.Toshkent. 2010. 5-6 betlar.
5. Salomov G'., Tarjima tashvishlari.Toshkent:G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1983.
6. Salomov G'., Adabiy an'ana va badiiy tarjima.Toshkent:Fan.1980.
7. Sotimov U., Shiller – G'G'ulom tarjimasida. Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari.Toshkent: Fan. 1975.
8. Sulaymonova F., Sharq va G'arb.Toshkent.O'zbekiston.1997. 416 bet.
9. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi.Toshkent:O'qituvchi.1980.
- 10.Tarjima san'ati.Maqolalar to'plami. 1-6 kitoblar.Toshkent:G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1961,1973,1976, 1978,1980,1985.
- 11.Sharofiddinov O., Badiiy tarjimaning ba'zi prinsiplari.Tarjima san'ati. 1 kitob. Toshkent: O'zdamnashr. 1961.
- 12.Sharipov J., She'riy tarjimaning ba'zi masalalari.Toshkent:Fan.1959.
- 13.Shiller F., asoratdagi Pegas. (M.Ali tarjimasini).Sharq yulduzi 1966.10 son.238-240 betlar.
- 14.Shiller F., Gero va Leandr. (E.Vohidov tarjimasini.) Sharq yulduzi. 1984. 12 son
- 15.Yashin Komil.asarlar. 6 tomlik. 5 tom.Toshkent: G'G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1980.
- 16.Гачечиладзе Г.Р.,Проблема реалистического перевода.АДД. Тбилиси.1961.
- 17.Гёте И.В. ., Об искусстве.М. Искусство1975.

18. Жирмунский В.М., Из истории западно – европейских литератур.Л.: Наука.1981.
19. Жирмунский В.М., Очерки по истории классической немецкой литературы.Л.: Художественная литература.1972.
20. Левик В., Избранные переводы. В 2-х томах.Т.1.М.: Художественная литература.1977.
21. Мкалаева Т.Г., Шиллер в оценке передовой русской критики первой половины XIX века.АКД.М.:1965.
22. Неустроев В.П., Немецкая литература эпохи просвещения.М.: Изд-во МГУ.1958.
23. Смолян О.А. Первые переводы и постановки Шиллера в России. В кн.:Статьи, материалы о Фридрихе Шиллере.М.:Наука.1966.
24. Статьи, материалы о Фридрихе Шиллере.М.:Наука.1966.
25. Федеров А.В. Основы общей теории перевода.Лингвистические проблемы.М.:Высшая школа.1983.
26. Художественный перевод, взаимодействие и взаимообогащение литератур.Ереван:Изд-во Ереванского университета.1973.
27. Чечельницкая Г.Я., Фридрих Шиллер.М. – Л.: Искусство.1959.
28. Kesten G.A., Tannenzapf M.S., Geschichte der deutschen Literatur (XVIII-XX Jh.) Verlag “Oqituwtschi” . Taschkent. 1969.
29. Peter Lanstein. Schillers Leben. List Verlag.München.1981.
30. Lexikon der Kunst.In vier Bänden.Band 1: A-F.VEB E.A.Seemann Verlag. Leipzig.1968.
31. Schiller. Sämtliche Werke.Gedichte.Aufbau-Verlag.Berlin und Weimar.1980.